

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AGRONOMIYA VA BIOTEXNOLOGIYA FAKULTETI

«BIOLOGIYA» KAFEDRASI

FAYZULLOYEV SHOHRUH SA‘DULLOYEVICH

**«Qorovulbozor tumani yuksak o‘simliklarining tur tarkibi va ularning
ahamiyati»**

**5140100 - Biologiya ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kvalifikatsiyasini
olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**BMI kafedraning №.... sonli qarori
... may 2020-yil bilan himoyaga ruxsat etilgan**

Kafedra mudiri dots. _____ M.M. To‘raev

Fakultet dekani dots. _____ A.Q. Qodirov

Ilmiy rahbar dots. _____ H.Q. Esanov

Buxoro – 2020

MUNDARIJA

Kirish	
I BOB. Qorovulbozor vohasining tabiiy-geografik tasnifi va tadqiqot metodlari.	
1.1 Geografik oʻrni	
1.2 Iqlimi	
1.3 Tuprogʻi	
1.4 Oʻsimliklar dunyosi	
1.5 Tadqiqot manbai va metodlari	
II BOB. Qorovulbozor tumani oʻsimliklari tahlili.	
2.1. Antropogen muhitlar florasi shakllanishining dolzarb muammolari	
2.2. Choʻl hududida oʻsimliklarning tarqalishi	
2.2. Qorovulbozor tumani oʻsimliklarining tur tarkibi va konspekti	
III BOB. Qorovulbozor vohasi oʻsimliklarining ahamiyati	
3.1. Dorivor oʻsimliklari	
3.2. Yem-xashak oʻsimliklari	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar	

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Insonlar o'simlik boyliklaridan juda qadim zamonlardan foydalanib kelmoqdalar. Biroq keying yillarda o'simliklar dunyosiga bo'lgan salbiy ta'sir kuchayib bormoqda. Bunga qishloq xo'jaligining rivojlanishi va tabiiy maydonlarning keng miqyosda o'zlashtirilishi sabab bo'lmoqda. Bunday antropogen ta'sirlar o'simliklar genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turlar sonini kamayib borishiga olib kelmoqda. Ilmiy manbalarning ma'lumotlariga ko'ra yer yuzida organik olamning umumiy massasini 99 % ini o'simliklar tashkil qiladi. O'zbekiston hududida tabiiy holda 4500 ga yaqin o'simlik turlari o'sadi. Ular orasida muhofazaga muhtoj kamyob va tibbiyotda qo'llaniladigan dorivor turlari ham uchraydi.

Hozirgi kunda antropogen ta'sir natijasida hamda sanoat maqsadida juda katta tabiiy maydonlar o'zlashtirilib zavod, fabrika va kombinatlar qurilmoqda. Bundan tashqari atrof-muhitning ifloslanishi va o'simliklardan no'tog'ri foydalanish natijasida ko'plab kamyob va endem o'simlik turlari hamda dorivor turlar maydonlari qisqarib, soni kamayib bormoqda.

Hozirgi vaqtda insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sirini tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. Ko'rinib turibdiki, tabiiy muhitni inson xo'jalik faoliyatining zararli ta'siridan himoya qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Keyingi 20-30 yil mobaynida mazkur hududning aholi sonining ko'payishi hisobiga o'zlashtirilgan maydonlarning kengayishi va chorva mollarining ko'payishi tabiiy muhit o'simliklariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Qorovulbozor tumani o'simliklariga bag'ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishi cho'l o'simliklarining muhofazasini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi. Qorovulbozor tumani yuksak o'simlik turlari tarkibini aniqlash, uning konspektini tuzish va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari. Qorovulbozor florasining tarkibini aniqlash; floraning tahlilini amalga oshirish; o'zlashtirilgan hududlarni florasini shakllanishini tahlil qilish; hududda uchraydigan dorivor va yyem-xashak o'simliklarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti. Qorovulbozor tumani o'simliklari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti – Jayron ekomarkazi o'simlik turlarining taksonomiyasi, hayotiy shakllari, geografiyasi va ekologiyasi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-ilk bor Qorovulbozor tumani florasining zamonaviy tarkibi aniqlandi va 44 oila, 180 turkumga mansub 276 tur yuksak o'simliklardan tashkil topgan konspekti tuzildi;

-ilk bor tadqiqot hududida tabiiy holda o'sadigan dorivor o'simliklarning 20 oila, 47 turkumga mansub 54 turdan tashkil topganligi aniqlandi.

Qorovulbozor tumani ham antropogen ta'sir juda keskin namoyon bo'layotgan hududlardan biri hisoblanadi. Qorovulbozor hududining xo'jalik maqsadlari uchun o'zlashtirilishi, chorva mollarining ko'p miqdorda boqilishi o'simliklar qoplamining floristik tarkibiga, ayniqsa kamyob turlar populyatsiyalariga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu antropogen ta'sirlarning hali uzoq davom etishini hisobga olgan holda va o'rganilayotgan hudud florasini tarkibi to'g'risida ilmiy manbalarda ma'lumotlar yetarli darajada keltirilmaganligi sababli uning florasini tarkibini o'rganish lozim.

Izlanishlardan olingan natijalar hududda monitoring tadqiqotlar olib borish uchun katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, hududning foydali o'simliklaridan xo'jalikda oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish zarur. Olingan ilmiy natijalar (florasining konspekti) Buxoro davlat universiteti

talabalari uchun malakaviy dala amaliyoti davrida, ekologiya va atrof muhit muhofazasi tashkiloti ish faoliyatida, Qorovulbozor hududida faoliyat ko'rsatayotgan maktab va kollejlarda botanika darslarini o'tishda mahalliy material sifatida foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 65 betdan tashkil topgan.

I BOB. Qorovulbozor vohasining tabiiy-geografik tasnifi.

1.1. Geografik o'рни. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Prezidiumining 1993-yil 12-yanvarda "Buxoro viloyati tarkibida Qorovulbozor tumanini tashkil etish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi va shu kundan boshlab tuman ta'sis etilgan sana etib belgilandi [10]. Tuman markazi Qorovulbozor shahri. Tumanning umumiy yer maydoni 211063 gektarni tashkil etadi. Shundan 6132 ga paxta, 6335 ga g'alla, 64 ga bog'-rog', 230 ga poliz va sabzavot, 490 ga turli ekinlar ekiladigan yyerlar bo'lib, qolgani yaylov, ixotazor, o'rmonzorlardan iborat. Aholisi 15.8 ming kishi¹. Qorovulbozor tumani Buxoro viloyatining eng janubiy-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, shimoliy-sharqiy tomondan Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani, Samarqand, janubiy tomondan esa Qashqadaryo viloyati Muborak tumani bilan chegaradosh, g'arbdan Olot, shimol tomondan Buxoro va Kogon tumani bilan qo'shni [1-rasm]; [12]

Qorovulbozor tumani geologik va tektonik tuzilishiga ko'ra O'rta Osiyoning tabiiy-geografik rayonlashtirilgan Quyi Zarafshon mintaqasiga kiradi¹. Qorovulbozor tumani birgina geomorfologik rayondan iborat. Tuman janubiy qismi asosan tekislik yyerlardan iborat, shimoliy qismi esa adirlardan, shimoldan janubga tomon pasayib boradi. Geologik tuzilishi va relefiga, iqlim sharoiti va tuproq-o'simlik dunyosiga ko'ra keskin farq qiladi. Qorovulbozor tumani hududi past tog'lar, tog'oldilaridagi tekisliklar (adirlar) dan iborat, landshaft zonasida joylashgan.

Qorovulbozor tumani hududi murakkab orografik tuzilishga ega bo'lib, janub tomonga pasayib boradi va kuchsiz to'liqsimon past-balandliklar ko'rinishida aks etadi. Hududning shimoli keng to'liqsimon, biroz ko'tarilgan tepaliklardan iborat bo'lib, ba'zan pastqam botiq joylar ham uchraydi. Bu zona releflari uchun eroziya jarayonlari, quyi kuchsiz drenajlashgan, pastqamlik yyerlarda esa sho'rlanishning sodir bo'lishi xos xususiyatdir.

Hududdagi to'liqsimon keng tekisliklar qadimgi to'rtlamchi davrning turli murakkab yotqiziqlaridan tashkil topgan. Hudud yyerlari dengiz sathidan 300-850 m balandlikda joylashgan. Hudud turli darajada sho'rlangan jinsli yotqiziqlardan, ular turli rangli va gipsli loylardan (soz tuproqlardan), qattiq jinslar qatlamlardan

iborat. **Adirlar orasidagi pastqamliklarda sho'rxoklar, ba'zan cho'kindi tog' yotqiziqalari** uchraydi.



1-rasm. Qorovulbozor xaritasi

1.2. Iqlimi. Tuman hududlari o'zining geografik joylashish o'rniga ko'ra, Turon subtropik iqlim mintaqasining O'rta Osiyo kontinental iqlim viloyat (provinsiyasi) ga kiradi va subtropik cho'l zonasiga mansub o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Kecha bilan kunduz, qish bilan yoz havosi

haroratlari o'rtasidagi keskinlik, nisbatan sernam, ba'zida ofatli (qora sovuqlar, sel, do'l yog'ishi, kuchli shamollar) bahor; uzoq (V-IX oylar) quruq, jazirama va o'rta yorug' yoz; qisqa (V-XI) va turg'unsiz kuz; iliq ba'zida esa ayozli muhim bo'lmagan qish iqlimning asosiy belgilaridir. Tumanning iqlim sharoitlarini uning janubiy okean va dengizlardan uzoqligi, cho'llar yaqinligi belgilaydi. Hududning umumiy iqlim sharoiti cho'l iqlimi ta'sirida shakllanadi. Iqlimning umumiy xususiyatlari tekislik hududlarida uning keskin kontinental quruqligi, yyerlarda havo haroratining pasayishi, yog'inlar miqdorining ortib borishi, quyosh radiatsiyasi, kunlik, oylik, yillik va fasllarda haroratining katta oraliqda tebranib turishi va atmosfera yog'inlarining yil davomida notekis taqsimlanishida o'z aksini topadi. Quyosh radiatsiyasining yillik yalpi miqdori 160 kkal atrofida. Iyuldagi o'rtacha temperatura $+27,8^{\circ}\text{C}$. $+10^{\circ}\text{C}$ haroratdan yuqori davr 28-martdan 28-oktabrgacha 210 kunni tashkil qiladi. Bu omil cho'l zonasida organik dunyoning rivojiga, hayot tarziga ko'p qirrali ta'sir etadi. Eng yuqori temperatura $+45^{\circ}\text{C}$, $+46^{\circ}\text{C}$. Eng sovuq oy yanvarda $-1,0^{\circ}$ ni tashkil etadi, absolyut minimum harorat $27-29^{\circ}$ gacha pasayadi. Vegetatsiya davri asosan 208 kunni tashkil etadi. Termik resurslariga ko'ra tuman hududi juda issiq zonaga kiradi. Ya'ni o'rtacha kunlik $+10$ darajadan yuqori bo'lgan haroratning yillik yig'indisi 5000 darajadan yuqoridir.

Tuman hududi tabiiy namlanishiga ko'ra o'ta quruq zonaga kiradi. Shu sabab tuman hududida tabiiy namlanish yetarli emas. Yillik yog'inlarning o'rtacha miqdori 150-155 mm ni tashkil qiladi, uning maksimal miqdori qish, bahor oylariga to'g'ri keladi, yoz oylarida o'ta quruq bo'lib, atigi 3 mm yog'in yog'adi. Yer yuzidan mumkin bo'lgan parlanish esa 2000 mm gacha boradi. Bahorga nisbatan sernam bo'lib yog'inlarning 45-55 % shu davrda to'g'ri keladi. Qish faslida esa bu kursatgich 35-40 % ga teng. Yoz fasli o'ta quruq havoning nisbiy namligi iyul, avgust oylarida 10-20 % gacha pasayadi va ofatli issik (garmsel) shamollarga sabab bo'ladi.

Havoning o'rtacha yillik nisbiy namligi 50-55 % ko'rsatkichlarda kuzatiladi, qish oylarida 75-80% gacha ko'tarilib, yoz oylarida 25-30% gacha

pasayadi, bu davrda yetishmagan namlik miqdorini sug'orish orqali to'ldiriladi. Bu hududlar dengiz sathidan daryo terassalarida 300-500 m, tog'oldi hududlari 500-850 m balandlikda joylashgan. Yog'inlar miqdorining kam bo'lishi va yoz oylaridagi yuqori harorat tuproqdan yuqori bug'lanishni sodir etadi.

Tuman hududida mahalliy suv manbalari yo'q hisobida. Bahorgi yomg'irlar tufayli taqirli pastqamliklarda ko'lmaklar hosil bo'ladi. Lekin qisqa muddatlarda ular yer mag'ziga singib, atmosferaga bug'lanib ketadi. Cho'l zonasida chorvachilik maqsadlari uchun bir necha artisan quduqlar ishga tushirilgan. 1981-yilda ishga tushirilgan Amu-Buxoro mashina kanalidan suv oladigan „Do'stlik" kanali orqali tumanning suvga bo'lgan talabi ta'minlanadi. Ushbu kanal tufayli katta maydondagi qo'riq yyerlar o'zlashtirilib yangi Qorovulbozor vohasi bunyod etilgan. Voha hududidagi zovur va oqava suvlarni bartaraf qilish uchun zovurlar tizimi yaratilgan. Zovur suvlarining to'planishi tufayli tumanning g'arbiy qismida Zikri, Devxona, Xadicha kabi tashlama ko'llar hosil bo'lgan.

Cho'l zonasidagi bioekologik holatni shamollarsiz tasavvur qilib bulmaydi. Shamolning o'rtacha tezligi 1,5-3,4 m/sek ga teng bo'lib, uning maksimal tezligi 22-28 m/sek ni tashkil etadi. Umuman olganda Qorovulbozor tumanining iqlim sharoitlari paxtaning o'rtapishar navlari va boshqa ekinlar yetishtirish imkonini beradi.

1.3. Tuprog'i. Tuman hududida cho'l zonasiga xos tuproqlar tarqalgan bo'lsada, ular bir butun yaxlit maydonlar hosil qilmaydi. Tuproqlar ona jinsning xususiyati, joyning relefi, sizot suvlarining kimyoviy tarkibi va chuqurligi kabi omillarga binoan tuproqlarning tiplari almashinib turadi.

Qorovulbozor tumani relyefi, asosan, tekislik bo'lib, adir, qir va qumli cho'l, barxanlar, taqir, sho'rxoklardan iborat. Tuproqlari o'tloqi bo'z, qumoq bo'z, cho'l qumli, sur-qo'ng'ir, taqir bo'z tuproqlar. Janubida sho'rxoklar katta maydonni egallaydi. Jarqoq, Saritosh, Setalantepa platolari hududida och bo'z tuproqlar tarqalgan. Cho'lda asosan qumli eol yotqiziqlari va yengil mexanik tarkibli qumli va qumloq tuproqlarining shuningdek prolyuvial yotqiziqlardagi tog'

osti tekisliklari tuproqlarning shag'alliligi darajasining yuqori ekanligini takidlash lozim.

Sur-qo'ng'ir tuproqlar odatda topografik jihatdan baland bo'lgan maydonlarda tarkib topgan. Mutaxassislar bu tipni toshloqli cho'l tuprog'i deb qaraydilar. Uning kesmasida tosh-shag'al aralashmalari mo'l bo'lib, pastki qatlami gipsli bo'ladi. Unumdorligi past, tarkibida chirindi miqdori 0,21-0,56 foiz atrofidadir.

Qumli cho'l tuproqlari va o'simlik qoplamiga ega bo'lmagan qumli maydonlarning ko'lami juda katta. Tuproq kesmasi bo'sh va g'ovak qum qatlamidan iborat. Chirindiga kambag'al 0,27-0,66 foiz. Ular sho'rlanmagan tuproqlar qatoriga kirsada, relefining murakkabligi va sochma qumlardan tarkib topganligi, o'zlashtirish uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

Taqir tuproqlar yuza qatlami odatda zich suv o'tkazmas qatlamga ega bo'lib, o'simlik qoplamiga ega emas. Bu tuproqlar odatda sho'rlangan, ozuqa moddalarga nisbatan boyroq. Chirindi miqdori 0,41-1,06 foiz atrofida bo'lib, sug'orma dehqonchilik uchun bir qancha qulayliklarga ega.

Sho'rxoklar nisbatan pastqam, sho'rlangan sizot suvlarining yer betiga yaqin bo'lgan joylarda keng tarqalgan. Bu yer osti suvlaridagi tuzlarning kapilyar naylar orqali yuqoriga ko'tarilishi sho'rxoklarning hosil bo'lishida yetakchi omildir. Tuproq eritmasida tuzlarning miqdori 3-20 foiz va undan ortiq bo'ladi. [10]

1.4. O'simliklar dunyosi. Qorovulbozor vohasida cho'l zonasiga xos bo'lgan yem-xashak, dorivor hamda "Qizil kitob"ga kiritilgan noyob turlar uchraydi. Voha turli xildagi tuproqlardan tashkil topganligi uchun har qaysi tuproq qatlami o'ziga xos bo'lgan o'simliklar qoplamiga ega. Masalan qumli cho'llarda asosan saksovul, quyonsuyak, qandim, cherkez, patloq, choycho'p, selen, ilq, yaltirbosh turkumlari dominantlik qilsa, gipsli toshloq cho'llarda qizilcha, sassiq kovrak, shuvoq, astragal, isiriq, partak kabi o'simliklar uchraydi. Bundan tashqari bu hududlarda lolaqizg'aldoq, achchiq buta, cho'g'an, qorabosh, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, ilq, arpaxon, oqchitir, no'xatak, baliqko'z, donasho'r, buzoqbosh, qozonteshar, oq pechak, cho'l piyozi, binafsha (romashka), cho'l zirasi, isiriq, kiyik o'ti, chaqish,

boyalich, rang, shuvoq, partak, singren, sassiq kovrak, qorasaksovl, qandim, arslonquyruq, achchiqmiya, bangidevona, gazanda (qichiqo't, chayono't), gulxayri, yetmak, zubtutum, isfarak, itsigak, ittikanak, ituzum, kovrak, kavul, maymunjon, mingdevona, olabuta, otquloq, achambiti, patloq, rovoch, sachratqi, qirqbo'g'im, qoqi, qushqo'nmas, qo'ypechak, yulg'un kabi o'simlik turlari ham keng tarqalgan. [10]

Voha aholisi cho'l o'simliklaridan asosan chorva mollarini boqishda foydalanadi. Shuningdek, kuzatishlar natijasida bilindiki ushbu hududlar viloyatdagi chorva mollari boqiladigan asosiy zonalaridan biridir. Bu holat hududda bir qator efimer o'simliklarning tarqalish arealini qisqarib borishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi kunda vohaning cho'l hududi jadallik bilan turli xildagi sanoat korxonalari va turar joylar qurish maqsadida o'zlashtirilib borilmoqda. Antropogen ta'sir ortishi bilan bu yerdagi tabiiy fauna qisqarib, uning o'rnini cho'l ekotizimiga chidamsiz bo'lgan madaniy turlar egallayapti. Fauna tarkibi qisqarishi cho'l iqlimiga ta'sir etmasdan qolmayapti albatta.

1.5. Tadqiqot manbai va metodlari. Dala tadqiqotlari natijasida hududning qumli, sho'rxok, gipsli, toshli tuproqlari, ekinlar orasi, atroflari, ariq va yo'l bo'ylaridan yuksak o'simliklarning namunalari yig'ildi.

Yig'ilgan o'simlik turlarini aniqlash va gerbariy namunalari yig'ishda marshrutli [24] va yarim statsionar [26] metodlardan foydalanildi. O'simliklarning ilmiy nomlari "Определитель растений Средней Азии" [22] va www.ipni.org. [27] elektron resursi bo'yicha, taksonlarning mualliflari Brummit R.K., Powell C.E. [3] qo'llanmasi asosida keltirildi. Begona o'tlarni o'rganishda "O'zbekiston begona o'tlarining zamonaviy tizimi va qo'sh (binar) nomlari" [2] kabi ilmiy manbadan foydalanildi. Oilalar ketma-ketligi A.L. Takhtajan [14] tizimi asosida keltirildi. Muhofazaga muhtoj, kamayib borayotgan o'simlik turlarini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"dan [17] foydalanildi.

II BOB. Qorovulbozor tumani o‘simliklari tahlili.

2.1. Qorovulbozor florasini shakllanishining dolzarb muammolari

Dunyoda hozirgi kunda bioxilma-xillikni saqlash global muammolardan biri bo‘lib, keyingi yillarda antropogen omillarning tabiatga ta’sir doirasining tobora kengayib borishi bunday muammolar ko‘lamining ham oshib borishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur holatlar tabiiy ekosistemalarga salbiy ta’sir ko‘rsatib, adventiv turlar tarkibini shakllanishida asosiy o‘rin egallamoqda. Bu o‘rinda, inson tomonidan o‘zlashtirilgan hududlarda tabiiy ekosistema komponentlarining tarkibini doimiy inventarizatsiya qilish, adventiv turlar tarkibini aniqlash va ularning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Buning uchun antropogen omillarning ta’siri keskin namoyon bo‘layotgan Qorovulbozor tumani hududlarida o‘simlik obyektlarini inventarizatsiyalash, ularga zarar etkazadigan begona o‘simlik turlarini aniqlash, antropogen o‘zgargan muhitlarda shakllanish jarayonlarini asoslash va qarshi kurash tadbirlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib borish lozim [1]. Mazkur tadqiqot hududi antropogen ta’sirlar natijasida o‘zlashtirilgan hududlardan biri bo‘lib, florasining shakllanishida chetdan kirib kelgan turlarning ahamiyati juda katta.

Bugungi kunda dunyoda inson faoliyati natijasida inqirozga uchragan hudud maydonlarining kengayib borishi bunday hududlarda tabiiy ekosistemalarning o‘zgaruvchan elementi sanalgan “flora” komponentlarini keng qamrovli tahlil etishni taqozo qilmoqda (Esanov, 2017). Mamlakatimizda inson tomonidan o‘zlashtirilgan maydonlarning tobora kengayishi, keyingi 20-30 yil mobaynida antropogen omillar ta’sirining yanada kuchayishi bunday hududlar florasining transformatsiyalanishi va unga yangi turlarni kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu o‘rinda, tadqiqot hududida aborigen flora komponentlarining o‘zgaruvchanligi, ularning chetdan kirib kelgan turlar tarkibi va shakllanish jarayonlari, mahalliy tur

populyatsiyalari areallarining qisqarishini ilmiy asoslab berish inson ta'sirida floraning adventivlanish jarayonlarini tushunishga imkon beradi. Shunga ko'ra, Qorovulbozor tumani hududining inson faoliyati ta'sirida o'zlashtirilgan maydonlarning aborigen va adventiv florasi tarkibini aniqlash, zamonaviy florogenez xususiyatlarini o'rganish, chetdan kirib kelayotgan turlarning iqlimlashish xususiyatlarini tahlil qilish va ularning ahamiyatiga ko'ra muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda boshqa hududlardan kirib kelayotgan turlarning mahalliy o'simlik jamoalari tarkibiga tez kirib borishi tabiatdagi bioxilma – xillik tarkibini o'zgarishiga olib kelayotgan asosiy sabablardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Buning natijasida lokal floralardagi aborigen turlarning tarkibi yer sharining barcha hududlari bo'ylab tez tarqalayotgan va mavjud antropogen omillar bilan uyg'unlikda fitosenologik faolligi ortayotgan invaziv o'simlik turlari bilan almashinayotgani hamda ularni o'rganish masalasini jiddiy ahamiyatga ega ekanligini belgilamoqda [5].

Mazkur muammo bo'yicha dunyoning bir qator mamlakatlarida (Germaniya, Angliya, Xitoy, Koreya va boshq.) ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, Rossiyaning ilmiy manbalarida [5] lokal floralar tarkibida adventiv turlarning ortishi tabiiy o'simlik jamoalariga, insonlar salomatligiga, bioxilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatishi, iqtisodiy zarar yetkazishi va oqibatda jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqarishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shundan kelib chiqqan holda biologik invaziyani o'rganish – bu zamonaviy botanik va ekologik tadqiqotlarning eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi [6]. Hozirgi kunda invaziv turlar bioxilma-xillikka eng katta xavf tug'diradigan omillardan biri sifatida shakllanib bormoqda.

O'zlashtirilgan muhitlarda chetdan kirib kelayotgan adventiv turlarni o'rganishga Yevropa va MDH mamlakatlarida ayniqsa, Rossiyada juda katta ahamiyat berilmoqda. O'simliklar alohida adventiv flora sifatida tadqiq qilinib, kirib kelish yo'llari, mahalliy turlar populyatsiyasiga ta'siri, keltirib chiqarayotgan iqtisodiy zarari ayniqsa, invazivlik xususiyatlari tadqiq qilinmoqda.

Qorovulbozor vohasi hududiga bunday turlar suv, insonlar, transport ayniqsa poyezdlar orqali kirib kelyapti. Natijada begona (adventiv) o'simlik sifatida vohaga tarqaladi. Shu adventiv turlardan biri kaliforniya qo'ytikanidir.

Qorovulbozor vohasida Asteraceae oilasiga mansub *Xanthium* turkumining 3 turi uchraydi: *Xanthium spinosum* L., *Xanthium strumarium* L., *Xanthium californicum* Greene. Vohada olib borilayotgan tadqiqotlarimiz davomida *Xanthium spinosum* turi o'sishi aniqlandi. Bu tur Qorovulbozor florasida to'g'risida ma'lumot beradigan ilmiy manbalarda mazkur hududda uchrashi to'g'risida ma'lumot keltirilmagan. Bu tur O'zbekiston florasida Toshkent va Samarqand viloyatlarida uchrashi bayon qilingan. *Xanthium spinosum* dastlab H.Esanov tomonidan 03.07.2013 yilda Buxoro shahar ko'kalamzorlashtirish markazidan olingan. Shundan so'ng Qorovulbozor hududidan topildi. Bizning fikrimizcha bu tur antropogen ta'sirlar natijasida ya'ni, Toshkent viloyatidan turli manzarali o'simliklarni olib kelish orqali kirib kelgan.

Xanthium californicum tabiiy tarqalgan areali Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerika hisoblanadi (Strother, 2006). Bu tur juda keng geografik tarqalishga ega. Butun Amerika bo'ylab tarqalgandan so'ng Yevroosiyoga kirib kelib Buyuk Britaniyadan (Clement, Foster, 1994) Koreyagacha (Kil et al., 2004) tarqalgan. So'ngra begona o'simlik sifatida Avstraliyaning sharqiy qismida keng tarqalgan (Parsons, Cuthbertson, 2001). 1900-yilda Riga atroflarida, 1915-yilda Sibirda gerbariy namunalari yig'ilgan (Ebel, 2003). Rossiya hududida uchrashi birinchi marta 1922-yilda G. Grossetom tomonidan qayd etilgan. Shu tariqa bu o'simlik yer yuziga jadal tarqala boshlagan.

Xanthium californicum O'zbekistonda uchrashi to'g'risida "O'zbekiston florasida" asarida ma'lumotlar keltirilmagan. Bu asar 1962-yilda nashr etilgan. TASH gerbariylarini o'rganganimizda ham o'simlikdan gerbariy namunalari yig'ilmaganligi aniqlandi. Keyinchalik nashr etilgan "O'rta Osiyo o'simliklari aniqlagichi" (1993) da Toshkent, Zafarobod, Dushanbe shahri atroflarida uchrashi qayd etilgan. Demak, bu turning kirib kelishi keyingi 20-yillar mobaynida amalga

oshgan. Fikrimizcha tadqiqot hududiga Amudaryo suvlari orqali va mevasidagi ilgakchalar yordamida odamlar kiyimlari yoki chorva mollarining juniga yopishib tarqalgan. Quruq mevasi suvda uzoq muddat suzib yurish va tarqalish xususiyatiga ega. Bu tur vohaning barcha tumanlarida yo‘l, ariq bo‘ylari, ekin maydonlarining atrofi, paxta dalalari, marzalar, ekilmay yotgan yyerlarda o‘sadi. Ayniqsa, Qorovulbozor tumani paxta dalalarida 1997-yilda juda ko‘p miqdorda tarqalganligi va paxta hosiliga jiddiy zarar yetkazganligi o‘rganilgan edi. Keyinchalik boshqa tumanlarga ham keng tarqalib ketdi.

Mazkur tur vohada adventiv tur sifatida jadal tarqalib unga yaqin tur *Xanthium strumarium* areallarini ham egallab tabiiy jamoalardan siqib chiqargan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bu turni voha hududida uchratmadik. Bu holatni ya’ni, *Xanthium strumarium* arealini egallab noyob turga aylanganligi Rossiya hududida kuzatilgan (Tixomirov, 1979; Mesheriy 1987). Shmalgauzen (1897) *Xanthium strumarium* tashlandiq ekilmay yotgan maydonlarda uchrasa, *Xanthium californicum* allyuvial tuproqli va tashlandiq yyerlarda uchrashini qayd qilgan. *Xanthium strumarium* ga nisbatan *Xanthium californicum* evolyustiya jarayonida yangi moslanish belgilarini namoyon qilgan. Bu xususiyat turni yanada keng tarqalish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xanthium californicum mazkur hududga chetdan adventiv tur sifatida kirib kelib voha florasi tarkibini boyitadi. Ammo uning zararli tomonlari ham mavjud. Insonlarda dermatit kasalligini keltirib chiqaradi (Weaver, Lechowicz, 1983). Yosh novdalari chorva mollari uchun zaharli hisoblanadi. Ekinlar hosiliga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, qo‘ylar juniga yopishib sifatini pasaytiradi. Bu turga qarshi kurash maqsadida biologik nazorat ishlar ishlab chiqilgan. Paxta dalalaridan vegetastiya davrining dastlabki davrlaridayoq ildizi bilan yulib tashlash choralari qo‘llanilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tadqiqot hududiga adventiv tur sifatida kirib kelib boshqa tabiiy populyatsiyalar areallarini egallamoqda. Boshqa turlarga nisbatan yangi joylarga moslanish xususiyatlari kuchliroq. Tabiiy arealidan boshqa

joylarga tarqalishini inobatga oladigan bo'lsak jadal tarqalayotgan invaziv tur deyish mumkin. Shuningdek voha florasi uchun ancha salbiy xususiyatlarni namoyon qilgan. Shuning uchun vohada bu turga qarshi kurash choralari bilan jiddiy shug'ullanish zarur.

Ko'rinib turibdiki, inson faoliyati keskin namoyon bo'layotgan hududlar ya'ni, agrolandshaftlar va urbanoflora tarkibini tadqiq qilish muhim muammolardan biri sanaladi. Mamlakatimiz hududiga adventiv turlar va ular orqali turli o'simlik kasalliklarini kirib kelishi madaniy o'simliklarning hosildorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda bunday tadqiqotlarning dastlabki natijalari mamlakatimizda Buxoro vohasida qayd etildi [18]. Antropogen muhitlarga chetdan kirib kelayotgan turlarning butun respublikamiz hududi bo'yicha tadqiq qilish bunday hududlarni zamonaviy florogenezi o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

2.2. Cho'l hududida o'simliklarning tarqalishi

Buxoro viloyati qurg'oqchil cho'l iqlimli hududdan tashkil topgan. Uning reliefi asosan tekislik va qisman qoldiq tog'lardan iborat. Tekislikning aksariyat qismi cho'l hududiga to'g'ri kelib, sug'oriladigan maydoni oz qismini tashkil qiladi. Sug'oriladigan maydonlar cho'lni o'zlashtirish natijasida shakllangan. Bu maydonlarda ko'proq sinantrop o'simlik turlari tarqalgan. Bunday turlarni Qorovulbozor vohasi hududida ham tarqalganligini ko'rish mumkin.

Qorovulbozor tumani janubdan Qashqadaryo viloyatining Muborak tumani, g'arbdan Olot, shimoldan Buxoro tumani, sharqdan Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegaradosh [12].

Qorovulbozor tumani reliefi, asosan, tekislik bo'lib, adir, qir va qumli cho'l, barxanlar, taqir, sho'rxoklardan iborat. Tuproqlari o'tloqi bo'z, qumoq bo'z, cho'l qumli, sur-qo'ng'ir, taqir bo'z tuproqlar. Janubiy maydonlarida sho'rxoklar katta

maydonni egalagan. Jarqoq, Saritosh, Setalantepa platolari hududida och boʻz tuproqlar tarqalgan.

Tuproqning bunday xillari oʻsimliklar qoplami bilan uzviy ravishda bogʻliq. Hudud oʻsimlik va tuproq sharoitiga qarab oʻziga xos ekologik xususiyatni namoyon qiladi. Ichki choʻllarda koʻproq shoʻr tuproqlarning uchrashi unda galofit turlarning tarqalishiga imkon yaratsa, tashqi choʻllarda qumoq, qumli tuproqlarning uchrashi u yerda psammofit turlarning oʻsishiga imkon beradi. Hududga xos tuproqlarda va toʻqaylarda esa mezofit turlarning tarqalishi namoyon boʻlgan.

Hududdagi qumlar tuproqlarda qumli choʻllarga xos psammofit turlar *Agriophyllum latifolium*, *A. minus*, *Alyssum dasycarpum*, *Atriplex dimorphostegia*, *Astragalus harpilobus*, *Andrachne rotundifolia*, *Carex pachystylis*, *C. physodes*, *Ceratocephala falcata*, *Ceratocarpus urticulosus*, *Chamaesphacos ilicifolius*, *Cutandia memphitica*, *Consolida leptocarpa*, *Crucianella filifolia*, *Diarthron vesiculosum*, *Erodium oxyrrhynchum*, *Hyalea pulchella*, *Hypecoum parviflorum*, *Ferula karelinii*, *F. foetida*, *Isatis minima*, *I. violascens*, *Koelpinia turanica*, *Lipskyella annua*, *Papaver pavoninum*, *Rhabdotheca korovinii*, *Roemeria refracta*, *Strigosella scorpioides*, *Senecio subdentatus*, *Poa bulbosa*, *Stipagrostis karelinii*, *S. pennata*, *Tetracme recurvata*, va boshqa turlar oʻsishi olib borilgan tadqiqotlar davomida aniqlandi. Qumlarda daraxt va butalardan *Haloxylon persicum*, *Calligonum caput-medusae*, *C. setosum*, *C. microcarpum*, *Salsola richteri* va boshqalarni uchratish mumkin.

Shoʻrxoklarda uchraydigan galofit turlar tuproqning shoʻrlanish darajasiga qarab tarqaladi. Bu turlar orasida ayniqsa, shoʻradoshlar oilasi vakillari (*Kalidium caspicum*, *Salicornia europeae*, *Salsola arbuscula*, *S. orientalis*, *Suaeda arcuata*, *Halostachys belangeriana*, *Halocnemum strobilaceum*, *Halimocnemis latifoliya*, *H. macrantera*) dominantlik qiladi. Bu oʻsimliklarning poya va barglari sersuv boʻlib, unda koʻp miqdorda tuz va ishqor toʻplanadi. Hududning gipsli tuproqlarda asosan *Artemisia* turkum vakillari koʻp uchraydi. Ular chorva mollarini boqishda asosiy yem-xashak turlardan biri boʻlib hisoblanadi. Shu bilan birga *Reaumuria*

turkestanica, *Cleome fimbriata*, *Haplophyllum versicolor*, *H. robustum*, *Iris longiscapa*, *Allium sabulosum* va boshqa turlarni ko'rish mumkin. Shuningdek Buxoro viloyatining boshqa tumanlarida uchramaydigan *Achillea wilhelmsii*, *Erucastrum armoracioides*, *Reseda lutea*, *Cirsium vulgare*, *Bunium chaerophylloides*, *Handelia trichophylla* turlarni keltirish mumkin [Esanov va boshq. 2020].

Qorovulbozor vohasining janubiy hududlarida taqir tuproqli maydonlar ham uchraydi. Bunday tuproqlar mazkur hududda uncha katta bo'lmagan maydonlarni tashkil qiladi. Bular yomg'ir suvlarining to'planib qolishi natijasida hosil bo'ladi. Tuproq yuzasi silliq bo'lganligi tufayli o'simlik urug'larining saqlanib qolishi ancha mushkul. Bu joylardagi yoriqlarga o'simlik urug'lari tushib qolib unishi mumkin. Taqirning ostki qismi qattiq bo'lganligi sababli o'simlik ildizlari yaxshi o'rasha olmaydi va o'sib rivojlanishi uchun noqulay muhit hisoblanadi. Shuning uchun bunday tuproqlarda o'simlik turlari juda kam uchraydi. Vohaning taqir tuproqlarida *Bromus tectorum*, *Bromus danthoniae*, *Eremopyrum bonaepartis*, *Eremopyrum triticeum*, *Gamanthus gamocarpus*, *Ceratocarpus utriculosus*, *Ferula foetida* va boshqa turlar uchraydi.

Hududning sug'oriladigan maydonlarida begona o'tlar, daryo bo'ylari va sernam yerlarda to'qayga xos daraxt, buta hamda ko'p yillik o'simliklar keng tarqalgan. Bularga *Populus euphratica*, *Salix alba*, *Elaeagnus angustifolia*, *Ulmus turlari*, *Tamarix turlari*, *Halimodendron halodendron*, *Glycyrrhiza glabra*, *Trachomitum lancifolium*, *Cynanchum sibiricum*, *Calystegia sepium*, *Cuscuta lehmanniana*, *Erianthus ravennae*, *Phragmites australis*, *Typha angustifolia*, *Karelinia caspia* va boshqalar kiradi.

Ko'rinib turibdiki, Qorovulbozor tumani issiq va quruq iqlim sharoiti bo'lishiga qaramay turli ekologik muhitlarda o'sadigan o'simliklarga boy. Ammo ularga ko'rsatilayotgan salbiy ta'sirlar ham sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Mazkur hududda uchraydigan o'simliklarga ayniqsa, fanerofitlarga antropogen ta'sirlarning namoyon bo'lishi ko'p kuzatilmoqda. Shu bilan bir qatorda qumli cho'llarda chorva mollarining ko'p boqilishi (ayniqsa, yog'ingarchilik kam bo'lgan

yillarda) O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan *Tulipa lehmanniana-lola turlariga* yanada salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bunday holatlarni oldini olish uchun chorva mollarini boqishni tartibga solish va aholiga tushuntirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2.3. Qorovulbozor tumani o‘simliklarining tur tarkibi va konspekti

Tadqiqot hududi, asosan, sug‘oriladigan ekin maydonlaridan iborat bo‘lib, qumli maydonlar ham uchraydi. Aholi tomonidan qumli maydonlarning o‘zlashtirilishi va ekiladigan yerlar atroflari mazkur maydonlar bilan chegaralanganligi sababli ko‘pchilik psammofit turlar ekinlar orasida o‘sib, begona o‘t sifatida uchraydi. Masalan: *Roemeria hybrida*, *Isatis violascens*, *I. minima*, *Tetracme recurvata* va boshqalar.

Izlanishlar va ilmiy manbalar ma’lumotlari asosida hudud florasining turlar tarkibi ro‘yxati tuzildi. Ro‘yxatda o‘simliklarning ilmiy nomlari, o‘zbekcha nomlari, hayotiy shakllari, uchrash joyi va foydali xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Adabiyotlardagi mavjud ma’lumotlar, dala tadqiqotlari davomida yig‘ilgan gerbariy materiallarini aniqlash va tahlil qilish asosida Qorovulbozor tumanida 44 oila, 180 turkumga mansub 276 tur yuksak o‘simliklar uchrashi aniqlandi.

Qorovulbozor tumani florası konspekti

Рynophyta-Голосеменные-Qarag'ay toifa

1. Oila. Ephedraceae-эфедровые-qizilchadoshlar.

1. Turkum. Ephedra L.-Эфедра-Qizilcha

1. *Ephedra strobilaceae* Bunge. Эфедра шишконосная-qubador qizilcha Buta. Turon. Qumli, shag'alli, toshli, tuproqlar. Buxoro tumani, Kogon tumani, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, yem-xashak, oshlovchi.

2. Oila. Berberidaceae-Барбарисовые-Zirkdoshlar

2. Turkum. Leontice L.-Леонтице-Yersovun

2. *Leontice evermannii* Bunge. Леонтице Эверсманна-Eversman yersovuni. Ko'p yillik. Eron-O'rta Osiyo. Qumli, shag'alli, gipsli, toshli tuproqlar. Buxoro tumani, Qorovulbozor vohasi. Asal shirali, dorivor, zaharli, yem-xashak, oziqbop.

3. oila. Ranunculaceae-Лютиковые-Ayiqtovondoshlar.

3.Turkum. Adonis L.-Адонис-Sug'uro't.

3. *Adonis parviflora* Fisch. ex. DC. Адонис мелкоцветковый-maydagulli sug'uro't, sassiqmatal, mushuko't. Bir yillik. Pontik-Sharqiy Qadimiy O'rtayer. Tashlandiq, bo'sh ekin maydonlari, mayda qumli, shag'alli tuproqlar. Kogon tumani, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, zaharli

4. Turkum. Ceratocephala Moench-Рогоглавник-Otashak, uchma.

4. *Ceratocephala falcate* (L.) Pers. Рогоглавник серповидный-ilontumshuq uchma. Ko'p yillik. Qadimiy O'rtayer. Qumli, qumoq, gilli va sho'r tuproqlar. Buxor, Kogon, Qorovulbozor, Peshku, Romitan, Jondor, G'ijduvon tumanlari. Dorivor, zaharli.

5. Turkum. Consolida Gray-Консолида-Konsolida.

5. *Consolida camptocarpa* (Fisch. & C.A.Mey. ex Ledeb.) Nevski (= *Delphinium camptocarpum* Fisch. & C.A.Mey.). Живокость согнутоплодная-Tasmacho'p, ko'kboshchitir. Bir yillik. O'rta Osiyo. Qumli va mayda toshli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

6. *Consolida leptocarpa* Nevski(= *Delphinium leptocarpum* Nevski). Живокость тонкоплодная-ingichka mevali konsolida. Bir yillik. O'rta Osiyo.

Gilli va qumli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor, Kogon, G'ijduvon tumani. Yem-xashak

4. Oila. Papaveraceae-Маковые-Ко'knordoshlar.

6. Turkum. *Papaver* L.-Мак-Ко'knor.

7. *Papver pavonium* Schrenk. Mak pavliniy-tovus ko'knori,lolaqizg'aldoq. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Qumli va gilli tuproqlar, ekinzorlar, tashlandiq yerlar. Buxor, Qorovulbozor, Kogon tumanlari. Bo'yoqbop, dorivor, zaharli, yem-xashak.

7. Turkum. *Roemeria* Medik.-Ремерия-Qizg'aldoq.

8. *Roemeria hybrida* (L.) DC. Binafsharang qizg'aldoq. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Yo'l bo'ylari, chag'illi, mayda qumli, shag'alli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor, Kogon, Peshku, Romitan, Jondor, G'ijduvon tumanlari. Dorivor, zaharli.

9. *Roemeria refracta* (Stev.) DC. Ремерия отогнутая-Egilgan qizg'aldoq. Bir yillik. Bu o'simlik. Eron-O'rta Osiyo. Toshli, shag'alli, qumli-gilli, qumli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor, Kogon, Peshku, Romitan, G'ijduvon. Bo'yoqbop, dorivor, zaharli, manzarali.

10. *Hypocoum parviflorum* Kar. et Kir. (= *Hypocoum pendulum* L.) Гипекоум мелкоцветный-maydagulli bo'g'immeva. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Mayda qumli tuproqlar, ekin maydonlari atroflari. Buxoro,Kogon, Peshku, Jondor, G'ijduvon, Qorovulbozor vohasi. Asal shirali, dorivor, zaharli.

11. *Fumaria vaillantii* Loisel. Дымянка Вайяна-Vayyan shotarasi. Bir yillik. Pontik-Sharqiy Qadimiy O'rtayerda. Buxoro, Qorovulbozor, Jondor tumanlari. Dorivor.

5. Oila. Portulacaceae – Портулаковые –Semizo'tdoshlar.

8. Turkum. *Portulaca* L. – Портулак-Semizo't.

12. *Portulaca oleracea* L. Портулак огородный-sabzavot semizo'ti. Bir yillik. Palearktik. Ekinzorlar, tashlandiq yerlar, daryo, ariq va yo'l bo'ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, oziqbop.

6. Oila. Caryophyllaceae-Гвоздичные-Chinniguldoshlar

9. Turkum. *Acanthophyllum* С.А. меу.-Колючелистник-Yetmak

13. *Acanthophyllum pungens* (Bunge) Boiss. (= *A. albidum* Schischk.). Колючелистый колючий-tikanli yetmak. Ko'p yillik. Eron-Turon. Qumli va toshli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor, Kogon, G'ijduvon tumani. Dorivor, zaharli, manzarali.

10. Turkum. *Holosteum* L.-Костенец-Qalampiro't.

14. *Holosteum umbellatum* L. Костенец зонтичный-soyabonnamo qalampiro't. Bir yillik. Sharqiy-Qadimiy O'rtayer. Qumli tuproqlar. Buxoro, Peshku, Romitan, Jondor, G'ijduvon, Qorovulbozor vohasi. Dorivor

11. Turkum. *Lepyrodiclis* Fenzl. – Пашенник-Shudgoro't.

15. *Lepyrodiclis holosteoides* (C.A.Mey.) Fisch. et C.A. Mey. Пашенник костенецovidный-qalampirnamo shudgoro't. bir yillik. Sharqiy Qadimiy O'rtayer. Ekinzorlar, dalalar, bog'lar, ariq bo'ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

12. Turkum. *Spergularia* (Pers.) J. Presl et C. Presl-Торичник-Spergulariya.

16. *Spergularia salina* (L.) Jaub. et C. Presl. Торичник солончаковый-sho'r spergulariya. Bir yoki ikki yillik. Golarktika. Daryo, ko'l, ariq, yo'l bo'ylari, sho'r tuproqlar. Qorovulbozor, Kogon, Peshku, G'ijduvon, Vobkent, Qorako'l tumanlari. Yem-xashak

13. Turkum. *Stellaria* L.- Звездчатка-Yulduzo't

17. *Stellaria media* (L.) Звездчатка средняя-o'rtacha yulduzo't. Bir yillik. Golartika. Ekinzorlar, dalalar, nam tuproqlar, temir yo'l bo'ylari. Buxor shahri, Qorovulbozor, Kogon, Buxoro tumanlari. Asal shirali.

7.Oila. *Amaranthaceae*-Амарантовые-Gultojxo'rozdoshlar.

14. turkum. *Amaranthus* L.- Щирица-Machin.

18. *Amaranthus albus* L. Щирица белая-oq tojixo'roz, oq machin. Bir yillik. Yevropa-Qadimiy O'rtayer. Ariq va yo'l bo'ylari, temir yo'l atrofi, tashlandiq yerlar. Buxoro, Qorovulbozor, Kogon tumanlari. Yem-xashak.

19. *Amaranthus retroflexus* L. Щирица запрокинутая-qayrilgan machin, yovvoyi gultojxo'roz, eshaksho'ra. Bir yillik. Plyuregional. Dalalar, bog'lar,

tashlandiq yerlar, ekinlar orasi, ariq va yo'l bo'ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Asal shirali, yem-xashak, dorivor.

20. *Amaranthus viridis* L. Щирица зеленая-yashil machin. Bir yillik. Plyuregional. Ariq va yo'l bo'ylari, tashlandiq yerlar, ekinlar orasi, dalalar, bog'lar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

15. Turkum. *Atriplex* L.- Лебеда-Olabuta.

21. *Atriplex hastata* L. Лебеда копьевидная-payzasimon olabuta. Bir yillik. Pontik-Qadimiy O'rtayer. Ekinlar orasi, tashlandiq yerlar, ariq va yo'l bo'ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

22. *Atriplex dimorphostegia* Kar. et Kir. Лебеда диморфная-cho'l olabutasi. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Qumli tuproqlar, taqirlar atroflari. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor, Peshku, Romitan, Jondor, G'ijduvon tumanlari. Yem-xashak.

23. *Atriplex tatarica* L. Лебеда татарская-tatar olabutasi, oddiy olabuta, eshaksho'ra. Bir yillik. Yevropa-Sibir-Qadimiy O'rtayer. Ariq va yo'l bo'ylari, ekinzorlar atrofi, bog'lar, dalalar, tashlandiq yerlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak, oziqbop.

16. Turkum. *Bassia* All. – Бассия-Bassiya.

24. *Bassia hyssopifolia* (Pall.) Kuntze. Бассия иссополистная-ilmoqli qo'ng'irsho'ra. Bir yillik. Pontik-Qadimiy O'rtayer. Yo'l va ariq bo'ylari, dalalar, bog'lar, tashlandiq yerlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

17. Turkum. *Ceratocarpus* L.-Погач-Ebalak

25. *Ceratocarpus arenarius* L. (= *Ceratocarpus utriculosus* Bluket). Погач сумчатый-xaltali ebalak. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Qumli, sho'rxok, chag'illi tuproqlar. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor, Peshku, Jondor, Romitan, G'ijduvon tumanlari. Zaahrli, yem-xashak.

18. Turkum. *Chenopodium* L.-Марь-Sho'ra.

26. *Chenopodium album* L. Oq sho'ra. Bir yillik. Plyuregional. Ekinzorlar, tashlandiq yerlar, bog'lar, yo'l, ariq, kanal bo'ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, yem-xashak, oziqbop, bo'yoqbop.

27. *Chenopodium rubrum* L. Марь красная-qizil sho'ra. Bir yillik. Yevropa-Sibir-O'rta Osiyoda. Sho'r tuproqlar, ariq va zovur bo'ylari, ko'llar atroflari, tashlandiq yerlar va ekinzorlar. Qorovulbozor vohasi. Dorivor, yem-xashak, oziqbop.

19. Turkum. *Climacoptera* Botsch.- Климакоптера-Baliqko'z.

28. *Climacoptera lanata* (Pall.) Botsch. Климакоптера шерстистая-sertuk baliqko'z. bir yillik. O'rta Osiyo. Sho'rxoklar, yo'l bo'ylari. Tashlandiq yerlar, ekinzorlar atrofi, to'qaylar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

29. *Climacoptera merkulowiczii* (Zakirov) Botsch. Климакоптера меркуловича-merkulovich baliqko'zi. Bir yillik. Qizilqum. Sho'r tuproqlar, tashlandiq yerlar. Qorovulbozor, Kogon tumani. Kamyoblik darajasi 2. Qizili kitob (2009). Qizilqum endemi. Yem-xashak.

30. *Climacoptera minkwitzae* (Korovin) Botsch. Климакоптера минквица-minkvis baliqko'zi. Bir yillik. Qizilqum. Sho'r tuproqlar, yo'l bo'ylari, tashlandiq yerlar. Kogon, Qorovulbozor vohasi. Qizilqum endemi. Yem-xashak.

31. *Climacoptera transoxana* (Iljin) Botsch. Климакоптера заамударьинская-amudaryo orti baliqko'zi. Bir yillik. Eron-Turon. Sho'r tuproqlar, tashlandiq yerlar. Buxoro shahri, Kogon tumani, Qorovulbozor vohasi. Vitaminli, yem-xashak.

32. *Climacoptera turcomanica* (Litv.) Botsch. Климакоптера туркменская-turkman baliqko'zi. Bir yillik. Eron-Turon. Taqir, sho'rxok va mustahkamlangan qumlar. Qorovulbozor, Kogon, Jondor tumanlari. Yem-xashak.

20. Turkum. *Corispermum* L.- Верблюдка-Qumtariq.

33. *Corispermum korovinii* Iljin. Верблюдка коровина-korovin qumatrig'i. Bir yillik. O'rta Osiyo. Qumli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor, Peshku, Romitan, Jondor tumanlari. Yem-xashak.

21. Turkum. *Cornulaca* Delile- Корнулака-Kornulaka.

34. *Cornulaca korshinskyi* Litv. Корнулака коржинского-korjinskiy kornulaksi. Bir yillik. Turon. Qumli, gilli va sho'rxok tuproqlar. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor tumanlari. O'rta Osiyo endemi. Yem-xashak.

22. Turkum. *Gamanthus* L.- Спайноцветник-Donasho'r.

35. *Gamanthus gamocarpus* (Moq.) Bunge. Спайноцветник спайноплодный-tutashmevali donasho'r. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Taqirlar, sho'rxoklar, gilli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak.

23. Turkum. *Girgensohnia* Bunge- Гиргенсония-Sag'an

36. *Girgensohnia oppositiflora* (Pall.) Гиргенсония супротивноцветковая-uchqanot sag'an. Bir yillik. Eron-O'rta Osiyo. Yo'l bo'ylari, sho'rxoklar, gilli, shag'alli tuproqlar, ekinlar atroflari. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor vohasi. Zaharli, Yem-xashak.

24. Turkum. *Halimocnemis* C.A. Mey.- Галимокнемис-Buzoqbosh.

37. *Halimocnemis latifolia* Iljin. Галимокнемис широколистный-kengbarg buzoqbosh. Bir yillik. Qizilqum. Qumli-chag'illi, gilli-qumli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor, G'ijduvon tumanlari. Qizilqum endemi. Yem-xashak.

38. *Halimocnemis macrantha* Bunge.- Галимокнемис крупнопильниковый-yirikchangdonli buzoqbosh. Bir yillik. Turon. Taqirlar, qumli-chag'illi tuproqlar. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor, G'ijduvon tumanlari. O'rta-Osiyo endemi. Yem-xashak.

39. *Halimocnemis pilifera* Botsch. (= *Halotis pilosa* Iljin). Галимокнемис волосистый-tukdor xalotis. Bir yillik. Eron-Turon. Taqirlar, sho'rxoklar, shag'alli tuproqlar. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

28. Oila. *Gentianaceae* – Горечавковые-Gazako'tdoshlar.

125. Turkum. *Galium* L. – Подмаренник-Qumrio't.

202. *Galium tricornutum* Dandy. Подмаренник трехрогий-uchshox qumrio't. bir rillik. Qadimiy O'rtayer. Ekinlar orasi, yo'l va ariq bo'ylari, to'qaylar, bog'lar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor.

126. Turkum. *Rubia* L. – Марена-Ro'yan.

203. *Rubia tinctorum* L. Марена красильная-bo'yoqdor ro'yan. Ko'p yillik. Sharqiy Qadimiy O'rtayer. Ariq bo'yi, ekinlar atrofi. Qorovulbozor, Kogon tumani. Dorivor, bo'yoqbop, asal shirali, yem-xashak.

29. Oila. Apocynaceae – Кендыровые –Kedirdoshlar.

127. Turkum. *Cynanchum* L. – Цинанхум-Илонпечак.

204. *Cynanchum sibiricum* Willd. Цинанхум сибирский-sibir ilonpechagi. Ko'p yillik. Sibir-O'rta Osiyo. Ariq, yo'l bo'yi, ekinlar orasi, bo'z yerlar, to'qaylar. Buxoro, Qorovulbozor vohalari. Dorivor, oziqbop, asal shirali, yem-xashak.

128. Turkum. *Trachomitum* Woodson- Кендырь—Kendir.

205. *Trachomitum lancifolium* (Russanov) Pobed. Кендырь ланцетолистный-nashtarbarg trachomitum. Ko'p yillik. Pontik-Qadimiy O'rtayer. Daryo bo'yi, to'qaylar, ekinlar atrofi, yo'l, ariq bo'ylari, marzalar. Buxoro, Qorovulbozor vohalri. Tolali.

30. Oila. Solanaceae – Пасленовые-Ituzumdoshlar.

129. Turkum. *Datura* L. – Дурман –Bangidevona.

206. *Datura stramonium* L Дурман обыкновенный-oddiy bangidevona. Bir yillik. Paleartik. Ekinlar orasi, partov yerlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor zaharli.

130. Туркum. *Lycium* L. – ДЕРЕЗА –Qoraching'il.

207. *Lycium ruthenicum* Murray. Дереза русская-qora ching'il. Buta. Eron-O'rta Osiyo. Sho'r, gilli tuproqlar, ekinlar atrofi, marzalar, zovur bo'yi, to'qaylar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, oziqbop, yoqilg'i, shirali.

131. Turkum. *Solanum* L. – Паслен-Ituzum.

208. *Solanum nigrum* L. Паслен черный-qora ituzum. Bir yillik. Golarktika. Ekinlar orasi, ariq bo'ylari, partov yerlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Oziqbop, dorivor, zaharli.

31. Oila. Convolvulaceae – Вьюнковые-Pechakdoshlar

132. Turkum. *Calystegia* R. Br. – Повой-Arxaro't.

209. *Calystegia sepium* (L.) R. Br. Повой заборный-devortag govpechak, arxaro't. ko'p yillik. Plyuregional. Ariq, daryo bo'ylari, sernam joylar, marzalar.

Buxoro shahri, Peshku, Romitan, G'ijduvon, Vobkent, Qorovulbozor tumanlari. Dorivor, manzarali, yem-xashak.

133. Туркum. *Convolvulus* L. – Вьюнок-Речак.

210. *Convolvulus arvensis* L. Вьюнок полевой-dala pechagi. Ko'p yillik. Plyuregional. Ekinlar orasi, to'qaylar, bog'lar, xiyobonlar, ariq va yo'l bo'ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi.

211. *Convolvulus erinaceus* Ledeb. Вьюнок жестковетвистый –oq pechak. Yarimbuta. Eron-O'rta Osiyo. Qumli cho'l tuproqlari. Buxoro, Kogon, Peshku, Jondor, Romitan, Shofirkon, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak.

212. *Convolvulus fruticosus* Pall. Вьюнок кустарниковый-tuyarauroq, butasimon pechak. Butacha. Eron-Turon. Mustahkamlangan tuproqlar, toshli-shag'alli tuproqlar. Kogon, G'ijduvon, Shofirkon, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak, asal shirali.

213. *Convolvulus hamadae* (Vved.) Petrov. Вьюнок пустыни-partek, sahro pechagi. Yarimbuta. Eron-O'sta Osiyo. Cho'lning qumli, shag'alli, toshqotishmali tuproqlari. Kogon, G'ijduvon, Shofirkon, Qorovulbozor, Buxoro, Peshku, Jondor, Romitan tumanlari. Asal shirali, yem-xashak.

134. Turkum. *Cressa* L. – Кресса-Kressa.

214. *Cressa cretica* L. Кресса критская-kulrang kressa. Ko'p yillik. Qadimiy O'rtayer. Sho'r tuproqlar, ekinlar atrofi, bo'sh yotgan yerlar. Buxoro shahar, Kogon, Qorovulbozor tumanlari. Dorivor, oziqbop, yem-xashak.

135. Turkum. *Cuscuta* L. – Повилика-Zarpechak.

215. *Cuscuta lehmanniana* Bunge. Повилика лемана-leman zarpechagi, devpechak. Bir yillik. Turon. Ekinzorlar, bog'lar, xiyobonlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, asal shirali, yem-xashak.

32. Oila. Boraginaceae – Бурачниковые —Kampirchopondoshlar.

136. Turkum. *Argusia* Boehm. – Аргузия-Arguziya.

216. *Argusia sogdiana* (Bunge) Czerep. Аргузия согдийский-so'g'd arguziyasi. Ko'p yillik. Turon. Qumli, taqir tuproqlar, yo'l bo'ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. O'rta Osiyo endemi. Dorivor, asal shirali, zaharli.

137. Turkum. *Arnebia* Forsk. – Арнебия-Arnebiya.

217. *Arnebia decumbens* (Vent.). Арнебия простертая-оʻrmalovchi arnebiya. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy Oʻrtayer. Qumli, chagʻilli tuproqlar, yoʻl boʻylari, ekinlar atrofi. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Boʻyoqbop, oshlovchi, yem-xashak, manzarali.

138. Turkum. *Heliotropium* L. – Гелиотроп –Tuyaqorin, koʻkmaraz.

218. *Heliotropium arguzioides* Kar. et Kir. Гелиотроп аргузиевый-arguziyanamo xazorangguli, choychoʻp. koʻp yillik. Oʻrta Osiyo. Qumli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Asal shirali, dorivor, yem-xashak.

219. *Heliotropium dasycarpum* subsp. *transoxanum* (Bunge) Akhani & Forther (= *Heliotropium transoxanum* Bunge). Гелиотроп заамударьинский-amudaryoorti tuyaqorini. Koʻp yillik. Oʻrta Osiyo. Zichlangan qumli, mayda qumli-shagʻalli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Oʻrta Osiyo endemi. Dorivor, yem-xashak.

220. *Heliotropium ellipticum* Ledeb. Гелиотроп эллиптический –elipssimon geliotrop. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy Oʻrtayer. Maydaqumli tuproqlar, qumlar, toshqotishmalar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Zaharli.

139. Turkum. *Heterocaryum* DC. – Гетерокарий –Xeterokarium.

221. *Heterocaryum szovitsianum* (Fisch. & C.A.Mey.) A.DC. (= *Heterocaryum rigidum* A. DC.). Гетерокарий шовича-shovis xeterokariumi. Bir yillik. Eron-Oʻrta Osiyo. Mustahkamlangan qumliklar, toshli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Foydalanilmaydi.

140. Turkum. *Lappula* Moench – Липучка-Moviygul.

222. *Lappula semiglabra* (Lebed) Gurke. Липучка полуголая-chalatuk moviygul. Bir yillik. Eron-Turon. Qumlar, chagʻilli va toshli tuproqlar. Peshku, Jondor, Romitan, Buxoro, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak.

223. *Lappula spinocarpos* (Forssk.) Asch. ex Kuntze. Липучка колючеплодная-tikanmevali moviygul. Bir yillik. Oʻrtayer-Eron-Turon. Qumli, shagʻalli, toshli tuproqlar. Jondor, Buxoro, Kogon, Qorovulbozor tumanlari. Foydalanilmaydi.

141. Turkum. *Nonea* Medik. – Нонея –Noneya.

224. *Nonea caspica* (Willd.) G. Нонея каспийская-kaspiy noneyasi. Bir yillik. Eron-Oʻrta Osiyo. Qumli, toshli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Oshlovchi, yem-xashak.

33. Oila. Scrophulariaceae – Норичниковые –Sigirquyruqdoshlar.

142. Turkum. *Cistanche* Hoffmanns. et Link. – Цистанхе-Qumsoʻta, ilonchoʻp.

225. *Cistanche flava* (C. A. Mey.) Korsh. Цистанхе желтая-sariq ilonchoʻp. Koʻp yillik. Kavkaz-Turon-Eron. Qumli tuproqlar, qum tepaliklar, kanal boʻylari. Buxoro, Jondor, Romitan, Peshku, Qorovulbozor tumanlari.dorivor, zaharli.

143. Turkum. *Dodartia* L. – Додарция-Dodartiya.

226. *Dodartia orientalis* L. Додарция восточная-sharq echkisoqoli. Koʻp yillik. Pontik-Sharqiy Qadimiy Oʻrtayer. Yoʻl, ariq boʻylari, ekinlar orasi, bogʻlar, dalalar, xiyobonlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, asal shirali, yem-xashak.

144. Turkum. *Scrophularia* L. – Норичник-Chechakgul.

227. *Scrophularia leucoclada* Bunge. Норичник беловетвистый-oqshoxchali chechakgul. Koʻp yillik. Oʻrta Osiyo. Qumli tuproqlar, taqirlar, shagʻalli, toshli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor tumani. Dorivor, asal shirali, manzarali, yem-xashak.

145. Turkum. *Veronica* L. – Вероника-Veronika.

228. *Veronica campylopoda* Boiss. Вероника согнутоногая-egik bedanachoʻp. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy Oʻrtayer. Qumli va chagʻilli tuproqlar, yoʻl boʻylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Vitaminli, yem-xashak.

229. *Veronica persica* Poir. Вероника персидская-fors bedanachoʻpi, hoʻkizkoʻz. bir yillik. Plyuregional. Ekinlar orasi, ariq boʻylari, dalalar, bogʻlar. Buxoro shahri, Shofirkon, Qorovulbozor tumanlari. Dorivor.

34. Oila. Plantaginaceae – Подорожниковые –Zubtutumdoshlar.

146. Туркум. *Plantago* L. – Подорожник-Zubtutum.

230. *Plantago lanceolata* L. Подорожник ланцетный-nashtarbarg zubturum. Ko'p yillik. Golarktik. Ekin maydonlari, bog'lar, dalalar, ariq bo'ylari, gulzorlar, sernam yerlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, yem-xashak.

231. *Plantago major* L. Подорожник большой-yirikbarg zubturum, bargizub. Ikki-ko'p yillik. Golarktik. Ekin maydonlari, bog'lar, dalalar, ariq bo'ylari, gulzorlar, sernam yerlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, yem-xashak.

35. Oila. Verbenaceae – Вербеновые-Tizimguldoshlar.

147. Turkum. *Verbena* L. – Вербена-tizimgul.

232. *Verbena officinalis* L. Вербена лекарственная-dorivor tizimgul. Ko'p yillik. Plyuregional. Ekinlar atroflari, yo'l va ariq bo'ylari. Buxoro shahr, G'ijduvon, Kogon, Qorovulbozor tumanlari. Dorivor, bo'yoqbob, efir moyli, yem-xashak.

36. Oila. Lamiaceae – Губоцветные-Yalpizdoshlar.

148. Turkum. *Chamaesphacos* Schrenk – Шалфейчик-Marmarak.

233. *Chamaesphacos ilicifolius* Schrenk. Шалфейчик падуболистный-padubbargli marmarak. Bir yillik. Eron-Turon. Mustahkamlangan qumli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Asal shirali.

149. Turkum. *Lagochilus* Bunge ex Benth.- Зайцегуб-Bozulbang.

234. *Lagochilus inebrians* Bunge. Зайцегуб опьяняющий-sarxush bozulbang. Yarimbutacha. O'rta Osiyo. Toshli, shag'alli, toshqotishmali tuproqlar. Qorovulbozor, Kogon tumani. Kamyoblik darajasi 2. Qizil kitob (2009). O'rta Osiyo endemi. Dorivor, efir moyli.

150. Turkum. *Lallemantia* Fisch. et C.A. Mey. – Лаллемантия-Mallachoy

235. *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth. Лаллемантия ройля-royl mallachoyi. Bir yillik. Pontik-Sharqiy Qadimiy O'rtayer. Qumli, gilli tuproqlar. Romitan, Buxoro, Peshku, Qorovulbozor tumanlari. Dorivor, efir moyli.

151. Turkum. *Lamium* L. – Яснотка-Lamium.

236. *Lamium amplexicaule* L. Яснотка стеблеобъемлющая-pushti lamium. Bir-ikki yillik. Palearktika. Ekin dalalari, yo'l bo'ylari, bo'sh yotgan yerlar. Buxoro shahri, Buxoro, Kogon, Qorovulbozor tumanlari. Efir moyli.

152. Turkum. *Mentha* L. – Мята-Yalpiz.

237. *Mentha longifolia* var. *asiatica* (Boriss.) Rech.f. (= *Mentha asiatica* Boriss.). Мята азиатская-osiyo yalpizi, osh yalpiz. Ko'p yillik. O'rta Osiyo. Ariq, kanal, daryo bo'ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, efir moyli, asal shirali, oshlovchi, oziqbop.

153. Turkum. *Paraeremostachys* Adylov, Kamelin et Makhm. –

Параэремостахис-*Paraeremostaxis*.

238. *Paraeremostachys desertorum* (Regel) Adylov, Kamelin et Makhm. Параэремостахис пустынный-cho'l oqto'shasi. Ko'p yillik. O'rta Osiyo. Gilli, chag'illi tuproqlar. G'ijduvon. Kogon, Qorovulbozor tumanlari. O'rta Osiyo endemi. Foydalanilmaydi.

154. Туркum. *Ziziphora* L. – Зизифора-Kiyiko't.

239. *Ziziphora tenuior* L. Зизифора тонкая-xushbo'y kiyiko't, cho'l yalpizi. Bir yillik. Yevropa-Sharqiy Qadimiy O'rtayer. Qumli, gilli, shag'alli tuproqlar. Buxoro, G'ijduvon, Qorovulbozor tumanlari. Dorivor, efir moyli, yem-xashak.

Liliopsida – Однодольные – Lolasimonlar

37. Oila. Liliaceae – Лилейныеloladoshlar.

155. Turkum. *Merendera* Ramond. – Мерендера-Sangrayquloq.

240. *Merendera robusta* Bunge. Мерендера крупная-yirik sangrayquloq. Ko'p yillik. Eron-O'rta Osiyo. Mustahkmalangan qumlar, gilli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, zaharli.

156. Turkum. *Tulipa* L. – Тюльпан-Lola.

241. *Tulipa lehmanniana* Merckl. ex Bunge. Тюльпан лемана-leman lolasi. Ko'p yillik. Eron-Turon. Qumli, gilli, toshli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor tumanlari. Kamyoblik darajasi 3. Qizil kitob (2009), manzarali, dorivor.

242. *Tulipa sogdiana* Bunge. Тюльпан согдийский-so'g'd lolasi. Ko'p yillik. Eron-Turon. Qumli, gilli, toshli tuproqlar. Buxoro, G'ijduvon, Shofirkon, Qorovulbozor tumanlari. O'rta Osiyo endemi. Manzarali.

38. Oila. Iridaceae – Ирисовые –Gulsafsardoshlar.

157. Turkum. *Iris* L. – Ирис –Gulsafsar.

243. *Iris halophila* var. *sogdiana* (Bunge) Grubov (= *Iris sogdiana* Bunge). Ирис согдийский-so'g'd gulsafsari. Ko'p yillik. O'rta Osiyo. Qumli, gilli tuproqlar. G'ijduvon, Buxoro, Qorovulbozor tuman. O'rta Osiyo endemi. Dorivor, yem-xashak.

244. *Iris longiscapa* Ledeb. Ирис длинностебельный-uzunproya gulsafsar. Ko'p yillik. Turon. Qumli, gilli tuproqlar. Buxoro, G'ijduvon, Shofirkon, Jondor, Qorovulbozor tumanlari. O'rta Osiyo endemi. Tolali, efir moyli, yem-xashak.

39. Oila. Ixioliriaceae – Иксиолирионовые-Chuchmomadoshlar.

158. Turkum. *Ixiolirion* Herb. – Иксиолирион –Chuchmoma.

245. *Ixiolirion tataricum* (Pall.) Schult. et Schult. Иксиолирион татарский-tatar chuchmomasi. Ko'p yillik. Sharqiy Qadimiy O'rtayer. Qumli, gilli, toshli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor tumanlari. Manzarali, zaharli, dorivor.

40. Oila. Amaryllidaceae – Амарилиссовые –Nargizdoshlar.

159. Turkum. *Allium* L. – Лук-Piyoz.

246. *Allium borszczowii* Regel. Лук борщова-borshov piyozi. Ko'p yillik. Turon. Qumli tuproqlar. Buxoro, Peshku, Shofirkon, Romitan, Qorovulbozor tumanlari. O'rta Osiyo endemi. Bo'yoqbop, dorivor, efir moyli.

247. *Allium sabulosum* Steven ex Bunge. Лук песчаный-qum piyoz. Ko'p yillik. Eron-O'rta Osiyo. Qumli tuproqlar. Buxoro, Peshku, Shofirkon, Romitan, Qorovulbozor tumanlari. Oziqbop, dorivor, efemir moyli.

41. Oila. Asphodelaceae – Ширавые –Shirachdoshlar.

160. Turkum. *Eremurus* M. Bieb. – Эремурус-Shirach.

248. *Eremurus anisopterus* (Kar. et Kir.) Regel. Ширяш неравнокрылый-notengqanotli shirach. Ko'p yillik. Eron-Turon. Qumli, gilli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor tumani. Dorivor, bo'yoqbop, yem-xashak.

42. Oila. Cyperaceae – Осоковые –Xiloldoshlar.

161. Turkum. Carex L. – Осока-Илоқ.

249. *Carex pachystylis* J. Осока толстостолбиковая-yo‘g‘ontumshuq qorabosh. Ko‘p yillik. Sharqiy Qadimiy O‘rtayer. Qumli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak.

250. *Carex physodes* M. Осока вздутая-илоқ, rang. Ko‘p yillik. Sharqiy Qadimiy O‘rtayer. Mustahkamlangan, to‘lqinsimon tuproqlar, barxanlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

162. Turkum. Cyperus L. – Сыть-Salomaleykum.

251. *Cyperus rotundus* L. Сыть круглая-salomalik xilol. Ko‘p yillik. Plyuregional. Ekinlar orasi, ariq bo‘yi, bog‘lar, gulzorlar, xiyobonlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi.

43. Oila. Poaceae – Злаковые –Bug'doydoshlar.

163. Turkum. Aegilops L. – Эгилопс –Yettibo‘g‘im, qasmaldoq.

252. *Aegilops cylindrica* Host. Эгилопс цилиндрический-yettibo‘g‘im, qamaldoq. Bir yillik. Pontik-Qadimiy O‘rtayer. Ekinlar orasi, ariq bo‘yi, yo‘l bo‘ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak, vitaminli.

164. Turkum. Aeluropus Trin. – Прибрежница –Sho‘rajriq.

253. *Aeluropus littoralis* (Gouan) Parl. Прибрежница солончаковая –tuksiz sho‘rajriq. Ko‘p yillik. Palearktika. Sho‘r, qum tuproqlar, suv havzalar atroflari, bo‘sh yotgan yerlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak, oshlovchi, bo‘yoqbor.

254. *Aeluropus repens* (Desf.) Parl. Прибрежница ползучая-о‘rmalovchi sho‘rajriq. Ko‘p yillik. Palearktika. Sho‘r, qum tuproqlar, suv havzalar atroflari, bo‘sh yotgan yerlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak, dorivor, bo‘yoqbor.

165. Turkum. Apera Adans. – Мятлица-Apera.

255. *Apera interrupta* (L.) P. Мятлица прерывчатая-bo'lingan apera. Bir yillik. Qadimiy O'rtayer. Sho'rlangan tuproqlar, to'qaylar. Buxoro, Kogon, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak.

166. Turkum. *Avena* L. – Овес-Suli.

256. *Avena fatua* L. Овес пустой-g'ovak suli, qorako'za. Bir yillik. Qadimiy O'rtayer. Ekinlar orasi, yo'l, ariq bo'yi, bog'lar, dalalar, gulzorlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

167. Turkum. *Bromus* L. – Костер –Yaltirbosh.

257. *Bromus danthoniae* Trin. Костер дантона-danton yaltirboshi .Bir yillik. Qadimiy O'rtayer. Qumli tuproqlar, ekinlar atrofi, marzalar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

258. *Bromus oxyodon* Schrenk. Костер острозубый-o'tkirtishli yaltirbosh. Bir yillik. O'rta Osiyo. Qumli, qumli-toshli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

259. *Bromus tectorum* L. Костер кровельный-cho'chqayol yaltirbosh. Bir yillik. Palearktika. Mustahkamlangan qumlar, shag'alli toshli tuproqlar, ariq, yo'l bo'ylari, ekinlar atrofi. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

168. Turkum. *Calamagrostis* Adans. – Вейник –Bug'doyiq qamish.

260. *Calamagrostis dubia* Bunge. Вейник сомнительный-bug'doyiq qamish, qalamibarg ro'vako't. Ko'p yillik. O'rta Osiyo. Ariq bo'yi, partov yerlar, to'qaylar, sernam tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. O'rta Osiyo endemi. Yem-xashak.

169. Turkum. *Cutandia* Willk.– Кутандия –Kutandiya.

261. *Cutandia memphitica* (Spreng.) Benth. Кутандия мемфийская-memfiy kutandiyasi. Bir yillik. O'rtayer-Eron-Turon. Qumli tuproqlar. Peshku, Jondor, Romitan, Buxoro, Qorako'l, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak.

170. Turkum. *Cynodon* Rich. – Свиной –Ajriq.

262. *Cynodon dactylon* (L.) Pers. Свиной пальчатый-Panjasimon ajriq. Ko'p yillik. Qadimiy O'rtayer. Ekinlar orasi, ariq, daryo, kanal, yo'l bo'ylari,

tashlandiq yerlar, to‘qaylar, bog’lar, xiyobonlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, yem-xashak, vitaminli.

171. Turkum. *Echinochloa* P. Beauv. – Ежовник-Kurmak.

263. *Echinochloa crus-galli* (L.) P. Ежовник петушье просо-shamak kurmak, qora kurmak. Bir yillik. Plyuregional. Ekinlar orasi, ariq bo‘ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi.

172. Turkum. *Eremopyrum* Jaub. et Spach – Мортук –Arpaxon.

264. *Eremopyrum bonaepartis* (Spreng.) Nevski. Мортук бонапарта-bonapart arpaxoni. Bir yillik. Qadimiy O‘rtayer. Qumli, gilli, tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

265. *Eremopyrum distans* (Koch) Nevski. Мортук расставленный-kerilgan arpaxon. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy O‘rtayer. Qumli, gilli, sho‘r tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak.

266. *Eremopyrum orientale* (L.) Jaub. & Spach. Мортук восточный-sharq arpaxoni. Bir yillik. Qadimiy O‘rtayer. Qumli, gilli, sho‘r tuproqlar. Buxoro, Kogo, G’ijdivon, Qorovulbozr tumanlari. Yem-xashak.

267. *Eremopyrum triticeum* (Gaertn.) Nevski. Мортук пшеничный-bug’doysimon arpaxon (118-ram). Bir yillik. Sharqiy Qadimiy O‘rtayer. Qumli, shag’lli, gilli, sho‘r tuproq. Buxoro, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak.

173. Turkum. *Henrardia* Hubb. – Генрардия-Xernardiya.

268. *Henrardia persica* (Boiss.) C. Генрардия персидская-fors xernardiyasi. Bir yillik. Eron-O‘rta Osiyo. Qumli, gilli, chag’illi tuproqlar. Buxoro, Kogon, Jondor, Peshku, Qorovulbozor tumanlari. Foydalanilmaydi.

174. Turkum. *Lolium* V. Krecz. et Bobrov – Плевелок –Mastakcha.

269. *Lolium subulatum* (Banks et Sol.) Eig. Плевелок восточная-bigizsimon mastakcha. Bir yillik. Sharqiy Qadimiy O‘rtayer. Qumli, shag’alli tuproqlar, taqirlar. Buxoro, Kogon, Jondor, Peshku, Qorovulbozor tumanlari. Yem-xashak.

175. Turkum. *Lolium* L. – Плевел-Mastak.

270. *Lolium temulentum* L. Плевел опьяняющий-zaharli mastak. Bir yillik. Golarktika. Ekinlar orasi, ariq, yo'l bo'ylari. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, zaharli, yem-xashak.

176. Turkum. *Phragmites* Adans. – Тростник-Qamish.

271. *Phragmites australis* (Cav.) Trin. ex Steud. Тростник южный-oddiy qamish. Ko'p yillik. Ariq, zovur suvlari. Ekilmay yotgan dalalar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, yem-xashak, yoqilg'i, qurilishbop, oziqbop.

177. Turkum. *Schismus* P. Beauv. – Схизмус –Mayincho'p.

272. *Schismus arabicus* Nees. Схизмус арабский-arab maydacho'pi. Bir yillik. Yevropa-Qadimiy O'rtayer. Qumli va shag'alli tuproqlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak..

178. Turkum. *Setaria* P. Beauv. – Щетинник-Qo'noq.

273. *Setaria verticillata* (L.) P. Щетинник мутовчатый-yorishqoq qo'noq. Bir yillik. Paleartika. Ekinlar orasi, ariq va yo'l bo'ylari, bog'lar, xiyobonlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Yem-xashak

274. *Setaria viridis* (L.) P. Щетинник зеленый-yashil qo'noq. Bir yillik. Paleartika. Ekinlar orasi, ariq va yo'l bo'ylari, bog'lar, xiyobonlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Vitaminli, yem-xashak.

179. Turkum. *Setaria* P. Beauv. – Щетинник – Qo'noq.

275. *Sorghum halepense* (L.) Pers. Сорго аллепское-jonson g'umayi. Ko'p yillik. Plyuregional. Ekinlar orasi, ariq va yo'l bo'ylari, bo'sh yotgan yerlar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Dorivor, yem-xashak, zaharli.

44. Oila. *Typhaceae* – Рогозовые-Qo'g'adoshlar.

180. Turkum. *Typha* L. – Рогоз –Qo'g'a.

276. *Typha angustifolia* L. Рогоз узколистный-ingichkabarg qo'g'a. ko'p yillik. Plyuregional. Zovur va ariq suvlari, kanal atroflar. Buxoro, Qorovulbozor vohasi. Oziqbop, tolali, yem-xashak, dorivor.

IV BOB. QOROVULBOZOR TUMANI O‘SIMLIKLARINING AHAMIYATI

4.1 Dorivor o‘simliklar

Odamlar qadim zamonlardan, tabiat ne‘matlaridan foydalana boshlaganidan, buyon dorivor o‘simliklardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3-4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qadimgi Misr mamlakatlarida shifobaxsh o‘simliklar haqida ma‘lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Shifobaxsh o‘simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning “Al-qonun” asarida 476 ga yaqin o‘simlikning dorivorlik xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dunyoda inson salomatligiga xavf soladigan kasalliklarning 20000 dan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularni davolashda 15000 dan ko‘proq dori-darmonlar qo‘llaniladi. Bu kabi dorilarni tayyorlashda 3000 nomdagi xomashyolar ishlatiladi va ularning 35% dan ortig‘i o‘simliklardan olinadi. Shunga ko‘ra dorivor o‘simlik turlarini inventarizatsiyalash, resurslarini baholash va ishlab chiqarish uchun istiqbolli turlarini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. [18]

Bugungi kunda jahondagi botanik tadqiqotlar o‘ziga xos xo‘jalik ahamiyatiga ega o‘simlik guruhlarini aniqlash, ayniqsa dorivor o‘simliklar resurslarini baholash, amaliyotda foydalanish va muhofaza chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Hozirgi davrda tibbiyotda qo‘llaniladigan dori mahsulotlarining qariyb 38-40% i o‘simlik xom-ashyolaridan olinadi [19]. O‘simliklar murakkab tuzilishga ega bo‘lgan tabiiy kimyoviy laboratoriya bo‘lib, bu o‘simliklar tarkibida turli xildagi foydali va zararli moddalarni hosil qiladi. Dorivor o‘simliklarning quritilgan o‘ti, kurtagi, ildiz, ildizpoyasi, tugunagi, piyozi, po‘stlog‘i, bargi, guli, g‘unchasi, mevasi, danagi, sharbati, qiyomi, efir moyi va boshqalaridan dori darmon tarzida foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda har bir hududning dorivor o‘simliklari va ularning xom-ashyo bazasini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Dorivor mahsulotlar tayyorlash uchun dastlab dorivor o‘simlik turlari tarkibini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Qorovulbozor vohasida olib borilgan dala tadqiqotlari va mavjud ilmiy manbalar [6;7] asosida Qorovulbozor vohasi tabiiy holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning 20 oila, 47 turkumga mansub 54 turdan tashkil topgan dastlabki ro‘yxati tuzildi (jadval)

Qorovulbozor tumani tabiiy holda o‘sovchi dorivor o‘simliklari

Oilasi	Ilmiy nomi	Ruscha nomi	O‘zbekcha nomi
Berberidaceae Juss.	Leontice eversmannii Bunge	Леонтиче эверсманна	Eversman yersovuni
Ranunculaceae Juss.	Ceratocephala falcata (L.) Pers.	Рогоглавник Серповидный	Ilmoqtumshuq uchma
Papaveraceae Juss.	Roemeria hybrida (L.) DC.	Ремерия фиолетовая	Binafsharang qizg’aldoq
	Roemeria refracta (Stev.) DC.	Ремерия отогнутая	Egik qizg’aldoq
	Papaver pavoninum Schrenk	Мак павлиний	Lola qizg’aldoq
	Hypocoum parviflorum Kar. et Kir.	Гипекоум мелкоцветный	Maydagul bo‘g’immeva
	Fumaria vaillantii Loisl.	Дымянка вайяна	Vaylant shotarasi
Chenopodiaceae Vent.	Chenopodium album L.	Марь белая	Oq sho‘ra
	Chenopodium rubrum L.	Марь красная	Qizil sho‘ra
	Salsola paletzkiana Litv	Солянка пальчского	Palets sho‘ragi
	Salsola richterii (Moq.) Kar. ex Litv.	Солянка рихтера	Cherkez sho‘rak
	Spinacia turkestanica Iljin	Шпинат туркестанский	Turkiston ismalog’i

Polygonaceae Juss.	Calligonum leucocladum (Schrenk) Bunge	Жузгун белокорый	Qanotli oqjuzg'un
	Polygonum aviculare L.	Горлеч птиший	Chunchuqtil toron, qushtili
Capparaceae Juss	Capparis spinosa L.	Каперчы колющие	Tikanli kovul
Brassicaceae Burnett	Capsella bursa- pastoris (L.) Medik.	Пастушья сумка обыкновенная	Oddiy jag'-jag', achambiti
	Descurainia sophia (L.) Webb ex Prantl	Дескурения софия	Sofiya shuvarani, sassiqkapa shuvaran
	Lepidium latifolium L.	Клоповник широколистный	Kengbarg torol
	Lepidium ruderales L.	Клоповник мусорный	Sassiq torol
Fabaceae Lindl.	Alhagi persarum Boiss. et Buhse	Верблюжья персидский	Shakar yantoq
	Alhagi pseudalhagi (M. Bieb.) Desv. ex B. Keller & Shap.	Верблюжья колюшка ложная	Soxta yantoq
	Glycyrrhiza glabra L.	Солодка голая	Silliq shirinmiya
	Sophora alopecuroides L.	Софора обыкновенная	Dag'al mevali shirinmiya
	Sphaerophysa salsula (Pall.) DC.	Сферофиза солончая	Sho'r bo'yan
Zygophyllaceae R. Br.	Zygophyllum oxianum Boriss.	Парнолистник амударьинский	Amudaryo tuyatovoni
	Peganum harmala L.	Гармала обыкновенная	Oddiy isiriq
Apiaceae Lindl	Daucus carota L.	Морковь обыкновенная	Yovvoyi sabzi
	Ferula foetida (Bunge) Regel	Ферула вонюшая	Sassiq kovrak
Asteraceae Bercht. & J.Presl	Artemisia annua L.	Полынь однолетняя	Burgan shuvoq, bir yillik shuvoq

	<i>Cichorium intybus</i> L.	Чикорий обыкновенный	Zangori sachratqi
	<i>Erigeron canadensis</i> L.	Мелколепестник канадская	Kanada erigeroni
	<i>Hyalea pulchella</i> (Ledeb.) K.Koch	Гиалея красивая	Chiroyli xialeya
	<i>Lactuca serriola</i> L.	Латук дикий	Yovvoyi sutcho‘p, kompaso‘t
	<i>Microcephala</i> <i>lamellata</i> (Bunge) Pobed.	Мелкоголовка пластинчатая	Mochechak
	<i>Sonchus oleraceus</i> L.	Осот огородный	Poliz bo‘ztikan
	<i>Xanthium spinosum</i> L.	Дурнишник колющий	Oddiy qo‘ytikan
Solanaceae Juss.	<i>Datura stramonium</i> L.	Дурман обыкновенный	Oddiy bangidevona
	<i>Lycium ruthenicum</i> Murray	Дереза русская	Qora jing‘il
	<i>Solanum nigrum</i> L.	Паслен шерный	Qora ituzum
Convolvulaceae Juss.	<i>Calystegia sepium</i> (L.) R. Br.	Повой заборный	Devortag govpechak, arxaro‘t
	<i>Convolvulus</i> <i>arvensis</i> L.	Вьюнок полевой	Dala pechagi, qo‘ypechak
Scrophulariaceae Juss.	<i>Cistanche flava</i> (C. A. Mey.) Korsh.	Чистанхе желтая	Sariq iloncho‘p
	<i>Dodartia orientalis</i> L.	Додарчия восточная	Sharq echki soqoli
	<i>Scrophularia</i> <i>leucoclada</i> Bunge	Норишник беловетвистый	Oqshoxchali chechakgul
	<i>Veronica persica</i> Poir.	Вероника персидская	Fors bedanacho‘pi, xo‘kizko‘z
Plantaginaceae Juss.	<i>Plantago lanceolata</i> L.	Подорожник ланчетный	Nashtarbarg zubtutum
	<i>Plantago major</i> L.	Подорожник большой	Yirikbarg zubtutum, bargizub
Lamiaceae Martinov	<i>Lallemantia</i> <i>royleana</i>	Лаллемантия ройля	Roysl mallachoyi

	(Benth.) Benth.		
	Ziziphora tenuior L.	Зизифора тонкая	Xushbo‘y kitiko‘t, cho‘l yalpiz
Liliaceae Juss.	Merendera robusta Bunge	Мерендера крупная	Yirik sangrayquloq
Iridaceae Juss.	Iris sogdiana Bunge	Ирис согдийский	So‘g‘d gulsafsari
Alliaceae J. Agardh	Allium borszczowii Regel	Лук борщова	Borshov piyozi
	Allium sabulosum Steven ex Bunge	Лук песшанный	Qum piyoz
Asphodelaceae Juss.	Eremurus anisopterus (Kar. et Kir.) Regel	Ширяш неравнокрылый	Noteng qanotli shirach

Keltirilgan dorivor o‘simliklar vohaning barcha ekologik muhitlarida uchraydi. Ammo ularning aksariyat qismi ariq bo‘ylarida, qishloq xo‘jaligi ekinlari orasida, sernam maydonlarda keng tarqalganligini qayd etish mumkin. Qorovulbozor vohasi dorivor o‘simliklarining mazkur ro‘yxati ilk bor keltirildi. Jadvalda keltirilgan o‘simlik turlarining uch nomda keltirilishi dorivor o‘simliklar bilan shug‘ullanadigan muassasa xodimlari va mahalliy aholining mazkur o‘simliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini osonlashtiradi.

Xulosa o‘rnida keyingi yillarda aholining dorivor mahsulotlarga bo‘lgan talabi tobora ortib bormoqda. Bu borada respublikamizda farmasevtika sanoatini rivojlantirish, aholini sifatli dori-darmon vositalari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar asosida dorivor o‘simliklarni yetishtirishga ixtisoslashgan farm-zonalar tashkil etish va dorivor o‘simliklarning xomashyo bazasini yaratish bo‘yicha muhim natijalarga erishilmoqda.

3.2. Yem-xashak o‘simliklari

Dunyoda aholi sonining tez suratlarda oshib borishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning ham tobora o‘shishiga olib kelmoqda. Chorvachilik uchun oziqa bazasining cheklanganligi va ayniqsa, yaylov chorvachiligi uchun yem-xashak bazasining

taqchilligi mavjud tabiiy yaylovzorlardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqishni talab etadi. Tabiiy yaylovlardagi yem-xashak o'simliklarni aniqlash, yuqori oziqabop turlardan keng foydalanish va chorvachilik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlarini yo'lga qo'yish dolzarb muammolardandir [1].

Hozirgi kunda cho'l yaylovlarining turli omillar ta'sirida degradastiyaga uchrashi, yem-xashak o'simliklarining tarqalish areallarining qisqarishiga va ularning sonini kamayishiga sabab bo'lyapti. Ayniqsa mahalliy aholi tomonidan saksovul, cherkez, partak, patloq va boshqa o'simliklarni turli maqsadlarda chopib ketilishi, chorva mollarini ko'p boqilishi va tizimli foydalanmaslik yem-xashak o'simliklarining resurslariga salbiy ta'sir ko'rsatib ozuqa bazasini kamayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ayni paytda Buxoro viloyati yem-xashak o'simliklarini aniqlash va ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish zarur.

H.F. Shomurodov (2018) ma'lumotlariga ko'ra Qizilqumda 68 oila, 345 turkumiga mansub 908 tur yem-xashak o'simliklari uchrashi qayd etilgan [18]. Buxoro vohasi florasi tarkibida 39 oilaga mansub 317 tur yem-xashak o'simliklari sifatida uchraydi [7]. Yem-xashak o'simliklari sho'radoshlar (66 tur), bug'doydoshlar (45), qoqio'ldoshlar (43) va karamdoshlar (32) oilalari tarkibida ko'p uchraydi.

Yem-xashak o'simliklarini o'rganishda ularning biotoplar bo'yicha tarqalishi, hayotiy xususiyatlari va ulardagi oziqa miqdori o'rganilishi zarur. Shunda yem-xashak o'simliklarining ozuqa bazasini yaratish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, mazkur o'simliklarning chorva mollari tomonidan yeyilish darajasini, ularning qaysi qismlari zaharli yoki zaharli emasligi o'rganiladi. Yem-xashak o'simliklarining orasida ebalak (*Ceratocarpus utriculosus* Bluket), sag'an (*Girgensohnia oppositiflora* (Pall.) Fenzl), sarsazan (*Halocnemum strobilaceum* (Pall.) M. Bieb.), isiriq (*Peganum harmala* L.) va boshq. kabi zaharli turlari mavjud. Shuning uchun ozuqa bazasini yaratishda mazkur o'simliklarga e'tibor juda muhim masala sanaladi.

Flora tarkibida yem-xashak o'simliklari ko'p tarqalgan turkumlarga *Amaranthus*, *Atriplex*, *Chenopodium*, *Calligonum*, *Salsola*, *Strigosella*, *Astragalus* lar kiradi.

Buxoro florasi tarkibida foydali xususiyatiga ko'ra yem-xashak o'simliklari eng yirik guruh hisoblanadi. Yem-xashak o'simliklari chorvachilik va parrandachilikning asosiy ozuqasidir. Bu o'simliklarga *Amaranthus retroflexus*, *Alhagi kirghisorum*, *A. pseudalhagi*, *Glycyrhiza glabra*, *Artemisia turanica*, *Aeluropus repens*, *Stipagrostis pennata*, *Trigonella grandiflora*, *Karelinia caspia*, *Bromus tectorum*, *Cynodon dactylon*, *Phragmites australis*, *Sorghum halepense*, *Heteroderis pusilla*, *Haloxylon aphyllum*, *H. persicum*, *Londesia eriantha*, *Salsola arbuscula*, *S. Micranthera*, *S. Paletziana*, *S. Richterii*, *Chorispora tenella* va boshqa ko'pgina turlar kiradi.

Yem-xashak o'simliklari orasida qamish, ajriq, yantoq, kakra, saksovul, cherkez, shuvoq, qandim va astragal turlari juda katta ahamiyatga ega. Yantoqning uch turi cho'l yaylovlarida uchrab chorvachilik va qorako'lchilikning muhim ozig'i hisoblanadi. Yantoq yil davomida, asosan, yozda gullagan vaqtda va qishda ko'proq iste'mol qilinadi. U cho'lda qum tuproqlarda, yo'l, kanal, ariq, daryo, ko'l bo'ylarida, tekisliklarda, paxta maydonlari atroflarida, ekilmay qolgan dalalarda, ochiq maydonlarda uchraydi. Uni mahalliy aholi kakra bilan birga qishga quruq massa sifatida g'amlaydi.

Qamish (*Phragmites australis*) asosiy yem-xashak o'simliklaridan hisoblanib, poya va barglari dag'allashguncha chorva mollari sevib iste'mol qiladi. Undan qishda qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun qimmatli oziq sifatida foydalaniladi. Chorva mollari uchun pichan tayyorlanadi.

Ajriq (*Cynodon dactylon*) qumli tuproqlarda, ariq, yo'l, kanal bo'ylarida, madaniy ekinlar orasida, tashlandiq yerlarda, bog' va xiyobonlarda uchraydi. U qimmatli yem-xashak o'simligi bo'lib, yuqori ozuqabop hisoblanadi. Yil davomida chorva mollari tomonidan iste'mol qilinadi.

Qizil qandim (*Calligonum caput-medusae*) cho'l yaylovlarida barxan qumlarda uchraydi. Qandim tarkibida alkaloidlar va oshlovchi moddalar mavjud.

Yog'ochlangan poyalarida oshlovchi moddalar 1.3-5.1%, yashil novdalarida 0.36% alkaloidlar va 3-10.9% oshlovchi moddalar, poya po'stlog'i va gullarida 4.79-10.9% va mevasi tarkibida 1-8% gacha oshlovchi moddalari bo'ladi. Ilmiy manbalarda Buxoro viloyati uchun bir gektarga 2.3 st hosildorlik to'g'ri kelishi qayd etilgan.

Qora saksovul (*Haloxylon aphyllum*) sho'rlangan tuproqlarda shuvoq, buyurg'un, qorabaroq, sarsazan va boshqa o'simliklar bilan jamoa hosil qiladi. Saksovulda uch xil novdalar mavjud: qishda to'kilmaydigan vegetativ, qisman to'kiladigan generativ va har yil to'kiladigan novdalar. Qishda to'kilmaydigan novdalar cho'l-yaylovlarda boqiladigan hayvonlar uchun asosiy oziq manbayi bo'lib xizmat qiladi. Vegetativ novdalar odatda o'simlikning yuqori qismida joylashadi.

Qora saksovulning ayniqsa, bir yillik shoxlari va mevalari qo'y, echki va tuyalar uchun ozuqa bo'ladi. Saksovulning bir yillik yashil novdalarida 13–15 % gacha oqsil bo'ladi. Keyinchalik bu miqdor yozda 8–10% ga, kuzda 6% gacha pasayib boradi. Ko'p yillik shoxlarida uning miqdori kam bo'ladi (4–5%). Yosh novdalari 10–16% klechatka bo'ladi. Uning miqdori yoz va kuzda 21 % gacha, qishda 25 % gacha ortadi. Ko'p yillik shoxlarida 40–42% gacha bo'ladi. Tarkibida vitamin – A (11 mg/kg) mavjud.

Yem-xashak o'simliklarini o'sish maydonlarining qisqarmasligi va turlarning yo'qolib ketmasligi uchun chorva mollarini tizimli boqishni ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Ozuqa bazalarini yaratishda yem-xashak o'simliklarining bioekologik xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi.

XULOSALAR

1. Qorovulbozor tumani florasining 44 oila, 180 turkumga mansub 276 turdan tarkib topganligi aniqlandi. Hududda qoqioʻtdoshlar (*Asteraceae*), shoʻradoshlar (*Chenopodiaceae*), bugʻdoydoshlar (*Poaceae*), karamdoshlar (*Brassicaceae*) va burchoqdoshlar (*Fabaceae*) oilalari vakillari keng tarqalganligi aniqlandi.

2. Oʻsimliklarning hayotiy shakllari tahlil qilinganda, bir yillik va koʻp yillik oʻt oʻsimliklari koʻrsatkichi ustunlik qildi. Bir yillik oʻt oʻsimliklar *Chenopodiaceae*, *Asteraceae*, *Poaceae*, *Brassicaceae* tarkibida, koʻp yillik oʻt oʻsimliklar *Fabaceae*, *Asteraceae* oilalari tarkibida uchrab, floraning asosini tashkil etdi.

3. Mazkur tadqiqot hududi antropogen taʼsirlar natijasida oʻzlashtirilgan hududlardan boʻlganligi sababli florasining shakllanishida mahalliy turlar bilan birga chetdan kirib kelgan adventiv oʻsimlik turlarning oʻrni bayon etildi.

4. Tadqiqot hududining choʻl muhitida tarqalgan oʻsimliklarning tahlil natijalari gipsofit, galofit, psammofit turlar mavjudligini koʻrsatdi. Ular orasida qumli tuproqlarda psammofit turlarning keng tarqalganligini koʻrish mumkin.

5. Qorovulbozor tumanida olib borilgan dala tadqiqotlari va mavjud ilmiy manbalar asosida tabiiy holda oʻsadigan dorivor oʻsimliklarning 20 oila, 47 turkumga mansub 54 turdan tashkil topganligi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdiniyozova G.J “Qoraqalpog’istonning dorivor va asal-shirali o’simliklarining hozirgi holati va ulardan oqilona foydalanish yo’llari”. Biol. fan. fals. dokt. dis. avtoref.-Toshkent, 2017.-46 b.
2. Arslonov M.T., Nabiev M.M., Prator O’P. O’zbekiston begona o’tlarining zamonaviy tizimi va qo’sh (binar) nomlari. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – 95 b.
3. Brummit R.K., Powell C.E. Authors of plant names. – Kew: Royal Botanic Gardens, 1992. – 732 p.
4. Clement E.J., Foster M.C. Alien plants of the British Isles. A provisional catalogue of vascular plants. – London: Bot. Soc. British Isles. 1994. – 590 pp.
5. Esanov H.Q. “Buxoro vohasi florasi tahlili”. Biol. fan. fals. dokt. (PhD) ...dis.-Toshkent, 2017.-178 b.
6. Esanov H.Q. “Buxoro vohasi florasi tahlili”. Biol. fan. fals. dokt. (PhD) ...dis.-Toshkent, 2017.-179 b.
7. Esanov H.Q., Bo’riyev S.B. “Buxoro vohasining foydali o’simliklari”. O’zbekiston biologiya jurnali.-Toshkent, 2009.-№5.-28-30 b.
8. Karimov B., Shomahmudov A. “Xalq tabobati va zamonaviy ilmiy tibiyotda foydalaniladigan shifobaxsh o’simliklar ”.-Toshkentm, 1995.-320 b.
9. Kil J.H., Shim K.C., Park S.H., Koh K.S., Suh M.H., Ku Y.B., Suh S.U., Oh H.K., Kong H.Y. Distributions of Naturalized Alien Plants in South Korea // Weed Technol. – Vol. 18. 2004. – P.1493-1495.
10. Nazarov I.Q, Allayorov I.Sh “Buxoro geografiyasi”. Buxoro,1994.-11-13 b.
11. Parsons W.T., Cuthbertson E.G. Noxious weeds of Australia. 2nd ed. – Colling wood: CSIRO Publishing. 2001. – 712 pp.
12. Soliyev B. “Qorovulbozor tumani: o’tmish, bugun va kelajak chorrahasida”. Toshkent, 2013.-106-107 b.

13. Strother J.L. *Xanthium* Linnaeus // Flora of North Amer. – Vol 21. 2006. – P. 19-20.
14. Takhtajan A. Diversity classification of flowering plants. – New York: Columbia University Press, 1997. – 643 p.
15. Xolmatov X.X., Qosimov A.I. “Dorivor o’simliklar”. Toshkent, 1994.-365 b.
16. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘.A. “Farmokagnoziya”. Toshkent, 1995.-623 b.
17. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”. 2-tomda. – Toshkent: Chinor ENK, 2009. T.1. – 360 b.
18. Shomurodov H.F. “Qizilqumning yem-xashak o’simliklari va ulardan foydalanish istiqbollari”. Biol. fan. dok. avtoref..-Toshkent, 2018.-63 b.
19. Виноградова Ю. К., Майоров С. Р., Хорун Л. В. Черная книга флоры Средней России: чужеродные виды растений в экосистемах Средней России. – М.: ГЕОС, 2010. – 512 с
20. Набиев М.М. *Xanthium* L. – Дурнишник / Флора Узбекистана. – Ташкент: АН УЗССР, 1962. Т.6. – С. 97-98.
21. Набиев М.М. *Xanthium* L. – Дурнишник / Определитель растений Средней Азии. – Ташкент: Наука, 1993. Т.10. – С. 623-626.
22. Определитель растений Средней Азии. 11 т. – Ташкент: Фан, 2015.
23. Тремасова Н.А., Борисова М.А., Борисова Е.А. Инвазионные виды растений Ярославской области. // Ярославский педагогический вестник. – Том III (Естественные науки). 2012 – №1 – С 103-111.
24. Щербаков А.В., Майоров С.Р. Инвентаризация флоры и основы гербарного дела (Методические рекомендации). – Москва: Товарищество научных изданий КМК, 2006. – С.48.
25. Эбель А.Л. О распространении некоторых эуконофитов на юге Сибири // Проблемы изучения адвентивной и синантропной флоры в регионах СНГ. Мат-лы научн. конф. 2003. – С. 128-130.

26. Юрцев Б.А. Программа сравнительно флористических исследований. В кн. Теоритические вопросы сравнительной флористики. – Л.: Наука, 1987. – С. 156-198.

27. <http://www.ipni.org>. International plants Name Index.